

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL‘TETI
O‘ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

4-kurs “D” guruhi talabasi

MAMIRBEKOV AZIZBEK ZAFARBEK O‘G‘LI

XORAZM-MA‘MUNIYLAR SULOLASI DAVRIDA
(995-1017 YILLAR)

5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha) ta‘lim
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: katta o‘qituvchi ***A. A. Hakimov.***

Andijon – 2016 yil

Mundarija

Kirish.....3-9.

1.bob. Xorazmda Ma'muniylar sulolasi xukmronligi davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot.....10-21.

1.1. IX-XII asrlarda Movarounnaxrda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....10-15.

1.2 Ma'muniylar sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi va ilm-fan taraqqiyotiga e'tibori.....16-21.

2.bob. Ma'mun akademiyasi ("Majlisi ulamo")ning shakllanishi va ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.....22-65.

2.1.Ma'mun akademiyasini tashkil etilishi va uning ilm-fan namoyondalari.....22-50.

2.2. Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi va bugungi faoliyati.....51-65.

Xulosa.....66-69.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....70-72.

Ilovalar.....72-77.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Xalqimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, boy tarixiy merosimizga, ma’naviy qadriyat va an’analarimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Bu davrda, davlatimiz rahbari Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta’riflanganidek, – “Insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch – ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ulkan e’tibor qaratildi.”¹

“Istiqlol yillarida ko‘hna tariximiz, boy madaniy-ma’naviy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, urf-odat va an’analarimiz qayta tiklandi, aziz-avliyolarimizning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag‘rikenglik, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi yuragimizning tub-tubidan o‘rin oldi.

Darhaqiqat, mustaqillik tufayli biz o‘zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O‘zbekistonning bor bo‘y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoniga ega bo‘ldik. Ozodlik bois bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g‘ayrati, azm-u shijoati ila Vatanimizning shon-shuhrati olam uzra yanada keng yoyilmoqda. Hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz – erkin va farovon kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan bunyod etmoqdamiz.

O‘sib kelayotgan avlodni har tomonlama yetuk, komil inson etib tarbiyalashda, hech shubhasiz, tarixiy xotira, madaniyat, ma’rifat, buyuk allomlarimizning ilmiy merosi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois mustaqillik davrida buyuk ajdodlarimizning hayoti va bebaho merosini o‘rganish,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008.-B.48.

qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi, milliy ma'naviyatimiz rivojlanib bormoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning doimiy e'tibori tufayli mustaqillik yillarida jahon ilm-fani, madaniyati rivojiga, insoniyat ma'naviyati takomiliga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning biz uchun ardoqli bebaho merosini o'rganish, shu bilan birga, ularning ibratli hayoti va ijodi, benazir kashfiyotlarining jahonshumul ahamiyati haqidagi bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan harakat bugun o'z samarasini bermoqda.

O'tgan davr ichida, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi o'nlab allomalarimizning xalqaro miqyosda o'tkazilgan tavallud sanalari, ularning qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasidagi ulkan ishlar xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitibgina qolmasdan, buyuk o'tmishimizdan meros bebaho ma'naviy mulkning jahon miqyosida yanada chuqurroq tushunilishi va keng e'tirof etilishiga xizmat qildi.

Chindan ham, buyuk iste'dod va qobiliyatga ega bo'lgan ajdodlarimiz 4-5 ming yillar ilgari O'rta Osiyoning murakkab sharoitida sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratganlar, suv inshootlarini qurish bo'yicha muhandislik hisob-kitoblarining ilk tajribaviy (empirik) va ilmiy asoslarini shakllantirganlar. Shuning natijasida obod vodiylar va vohalarda aholi konsentratsiyasi mintaqamizga xos urbanistik jarayonlarni ham yuzaga keltirgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Xiva, Termiz, Toshkent, Marg'ilon kabi qadimiy shaharlarimizning ketma-ket nishonlangan tarixiy sanalari qadimiy shaharsozlik va shahar madaniyati markazlarining ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etganini namoyish qildi.

Mustaqillik yillarida buyuk allomalarimiz xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish va yoshlar ongida ajdodlar merosiga hurmat ruhini kuchaytirish va ularning ota-bobolarimizga munosib avlod bo'lib kamol topishida muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Haqli ravishda qayta tiklanish o'n yilligi deb aytish mumkin bo'lgan

1991-2001 yillarda O'zbekiston hududida xalqimiz tarixini o'zida mujassam etgan 2000 dan ortiq tarixiy yodgorlik ta'mirlangani va bu ishlarning izchil davom ettirilayotgani boy merosimizni asrab-avaylashga qaratilgan ulkan e'tibor natijasidir.”²

Ayniqsa, o'rta asrlarda yurtimiz zaminidan ayniqsa Xorazm diyorida o'nlab buyuk olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi tabiat va jamiyatshunoslik fanlarining barcha sohalariga oid asarlari faqat O'rta Osiyo xalqlarining emas, balki butun dunyo xalqlarining ma'naviy mulkidir.

Uyg'onish davrining ahamiyati, ajdodlarimiz erishgan yutuqlar haqida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Ota-bobolarimiz shuhratining soyasiga mahliyo bo'lib yuradigan davrlar endi o'tdi. Bugun jahon bizdan o'z so'zimizni aytishimizni, o'z tafakkurimizni namoyon etishimizni talab qilmoqda. Boshqa xalqlar, boshqa millatlar bizga yotsirab - bepisand qaramasligi, balki bizni e'tirof etishi, bizni ehtirom etishi kerak. Biz ana shu yuksak munosabat va hurmatga loyiq bo'lishimiz darkor»³.

“Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahrida 2014-yilning 15-16 may kunlari bo'lib o'tgan xalqaro ilmiy konferensiya O'rta asr Sharq ilm-fani taraqqiyoti, Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy merosi va uning bugungi sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati masalalarini yoritishga qaratilgani bilan dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi.”⁴

“O'rta asrlar Sharq tarixi shundan dalolat beradiki, madaniyat va ta'lim-tarbiya, tibbiyot, adabiyot, san'at va arxitektura sohalaridagi beqiyos yuksalish, ilmiy maktablarning vujudga kelishi, yangi-yangi iste'dodli avlodlar to'lqinining paydo bo'lishi va voyaga yetishi – bularning barchasi birinchi navbatda iqtisodiyot, qishloq va shahar xo'jaligining ancha jadal o'sishi, hunarmandlik va savdo-

² O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. O'quv qo'llanma. T.,2014. –B.3-4.

³ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni- xalq, millatni- millat qilishga xizmat qilsin. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T.: O'zbekiston, 1999. –B. 99.

⁴ O'rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. O'quv qo'llanma. T.,2014. –B.5.

sotiqning yuksak darajada rivojlanishi, yo'llar qurilishi, yangi karvon yo'llarining ochilishi va avvalambor nisbiy barqarorlikning ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Men bu fikrga alohida urg'u berib aytmoqchiman. Chunki, tinchlik va barqarorlik bo'lmasa, ilm-fan sohasida hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. Qayerda tinchlik va barqarorlik bo'lsagina ilm-fan markazlari, akademiyalar, oliy o'quv yurtlari paydo bo'ladi. Eng asosiysi, ta'lim-tarbiya ravnaq topib, unga qiziqish, e'tibor kuchayadi. Tinchlik-barqarorlik bo'lgan joydagina odamlar o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi. Odamlar kechasi uyquga yotib, ertalab turishga qo'rqmaydigan, ertaga ularning boshiga qandaydir muammo yoki ofatlar kelmasligini bilgan taqdirdagina shunday bo'ladi. Bu haqiqat ko'p asrlar davomida o'z tasdig'ini topgan va ishonchim komilki, bugun bu mavzuda gapirishning o'zi ortiqcha.

Sharq olamida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida rivojlangan madaniyatning mavjud bo'lgani haqida qadimgi baqtriya, so'g'd, o'rxun, xorazm yozuvlarida bitilgan yodgorliklar, devoriy tasviriy san'at asarlari va haykalchalar, arxitektura namunalari dalolat beradi.

XI-XIII asrlarda asos solingan Xorazm davlati, Fors ko'rfazigacha bo'lgan hududlardagi qo'shni xalqlar yerlarini birlashtirgan holda, Osiyo qit'asining katta qismini qamrab olgan.”⁵

Mavzuning o'rganilish darajasi. Mustaqillik yillariga qadar milliy ma'naviyat, milliy mafkura, milliy g'oya masalalariga oid tadqiqotlar deyarli o'tkazilmagan edi. Masalan milliy - madaniy qadriyatlar, ularni rivojlantirish, tarixiy shaxslar faoliyatini o'rganish, ma'naviy yuksalish va boshqa jihatlar. Amir Temur va temuriylar tarixi, Istiqlolchilik harakati tarixi, jadidchilik harakati tarixini o'rganishning umuman iloji yo'q edi. Ma'naviy yuksalishda ushbu masalalarni tadqiq etish fikri bugungi kunga kelibgina paydo bo'ldi.

⁵ Karimov I.A. “ O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konfrensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. <<Xalq so'zi>>, “Sharq”, T.,2014.-B.1.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina Markaziy Osiyo, Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasiga obektiv-xolisona baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'rinda faylasuf, tarixchi va adabiyotchi olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Masalan, Amir Temur va temuriylar davri tarixi, ularning ma'naviy merosini, shaxsiy sifatlarini o'rganishda B.Axmedov, A.Axmedov, T.Fayziyevlarning xizmatlari beqiyos bo'ldi⁶.

Shuningdek, tarixiy shaxslar hayot-faoliyatiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlar ham dunyo yuzini ko'rdi⁷.

Tarixiy jarayonlar mohiyatini va jadidlarning ma'naviy – ma'rifiy yuksalishdagi say-harakatlarni ochib berishda adabiyotchi olimlarimizdan U. Dolimov, Sh. Rizaev, Sh.Turdiyev, B. Qosimov, S. Qosimov va boshqalarning bir qator maqola va risolalari muhim o'rin tutadi⁸.

Jumladan, Sh. Rizaevning «Jadid dramasi» asari ham, alohida e'tiborga molik bo'lib, o'rganilayotgan muammolarning yechimini topish uchun ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni mavzusidagi Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallari ham keng foydalanildi.⁹

Mavzu tarixshunosligi tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar

⁶ Axmedov B. Tarixdan saboqlar.-T.: O'qituvchi, 1994., Axmedov B. O'zbek ulusi.-T.: Meros, 1992., Fayziev T. Temuriy malikalar.-T.:Fan, 1996., Fayziev T. Mirzo Ulug'bek avlodlari.-T.: Fan, 1994.

⁷ Shihobiddin an-Hasaviy. Siyrat as-sulton Jaloliddin Mengburn.-T.: Fan, 1999., Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy.-T.Fan, 1996., Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma.-T.: Sharq, 1999.

⁸ Qosimov B. Fitrat //San'at.-1991.-№12.-b.10-12; o'sha muallif: Ismoilbek Gaspirali.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot birlashmasi, 1992.-B.48; Turdiyev Sh. Zakiy Validiy yodnomasidan //Fan va Turmush.-1993.-№11-12.-B.24-26.; Dolimov U. Ishoqxon Ibrat.-Toshkent: Sharq, 1994.-144 b.; Qosimov S. Ma'rifatparvarlik she'riyati //Guliston.-1995.-№4.-B.50-53.; Rizaev Sh. Ma'rifatparvarlikdan ma'rifatchilikgacha //Tafakkur.-1995.-№1.-B.74-79.; o'sha muallif: Jadidchilik //Ma'rifat.-1996.-30 mart; o'sha muallif; Jadid dramasi.-T.: Sharq, 1997.-320b.; va boshqalar.

⁹ «Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006;Хоразм Маъмун академияси (Хорезмская академия Маъмуна). Китоб-альбом. Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган. -Т.: Шарқ, 2005.;Хоразм Маъмун академияси. Илмий монографик тўплам. -Тошкент, 2005;Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

xaqidagi qarashlari masalasining ayrim jihatlarini bir qator tarixchi va adabiyotchilarning ilmiy maqola va risolalarida qisman yoritilgan bo'lsada, u alohida ilmiy tadqiqot obekti bo'lmagan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasini tahlil qilib beradigan bironta yirik ilmiy tadqiqot e'lon qilingan emas. Vaholanki, Markaziy Osiyo Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasi jamiyat taraqqiyotida ustivor ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Ushbu mavzuga oid asarlar tahlili kam o'rganilgan muammolarni aniqlab, ularni yoritishga yangicha yondashuv lozimligini ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Ishning asosiy manbalari bo'lib tarixiy jarayonlar, shaxslar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy asarlar, davriy matbuot namunalari, kundalik nashrlarning materiallari manba bo'lib xizmat qildi.

Yuqoridagi manbalar Markaziy Osiyo- Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasining muhim jihatlarini tadqiq etish uchun g'oyatda ahamiyatlidir.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda Markaziy Osiyo- Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasi ilk bor xolisona, obektiv tahlil etildi. Ishning ilmiy jihatdan yangiligi yana shu bilan izohlanadiki, Markaziy Osiyo- Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasini yoritib berishda birinchi marotaba matbuot namunalari, ilmiy-ma'naviy meros namunalaridan keng foydalanildi.

Ishda Markaziy Osiyo -Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni Uyg'onish davri mutafakkirlarining g'oyalar xaqidagi qarashlari masalasini yangicha ilmiy yondashuv asosida o'rganildi va yoritib berildi.

Bitiruv malakaviy ishining davriy chegarasi. Ish uchun davriy chegara qilib Ma'muniylar sulolasini Xorazmda xukmronlik qilgan davri ya'ni 995 yildan to 1017 yilgacha bo'lgan davr qamrab olindi. Chunki, mazkur davrlarda o'lkamizda ilm-fan, madaniyat, rivojlandi. Ma'mun akademiyasi tashkil qilindi. Aniqroq

aytadigan bo'lsak-Uyg'onish davri sifatida namoyon bo'ldi. Shu bois davriy chegara sifatida ushbu tarixiy davr tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

1.bob. Xorazmda Ma'muniylar sulolasi xukmronligi davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayot.

1.1. IX-XII asrlarda Movarounnaxrda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

IX-XII asrlar davomida Movaraunnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lka sifatida mashhur bo'lib, bu yerda qadimiy an'analar bilan arab, fors, qisman hind xamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an'analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar – astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jug'rofiya, kabilar rivoj topdi. Bu yerda mashhur hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda ham muhim asarlar vujudga keldi.¹⁰

Arxeologik qazilmalar va qo'lyozma manbalardan ma'lum bo'lishicha o'sha davrda musiqa va musiqashunoslik ham keng rivoj topgan va u matematika ilmining tarkibiy qismi sanalgan. Mazkur davrning buyuk olimi Abu Nasr Farobiy musiqaning nazariy asoslari, kuylar, asboblari, musiqa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bag'ishlangan «Katta musiqa» kitobining muallifidir («Kitob al musiqi al Kabir»). O'rta asr musulmon sharqi musiqa nazariyasiga bag'ishlangan ushbu kitob 2 qism, 3 kitobdan iborat bo'lgan. Farobiy «Katta musiqa» dan tashqari «Musiqa haqida so'z», «Ritmlar tartibi haqida kitob», «Ritmga qo'shimcha qilinadigan siljishlar haqida» asarlarining ham muallifidir¹¹.

IX-XII asrlar davri madaniyatining buyuk namoyondalari o'z ijod, izlanishlarida bevosita qadimgi madaniyat merosiga tayandilar. Avvalgi ma'ruzada Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yunonlar, rimliklar, mesopotamiyaliklar, hindistonliklar va xitoyliklarning madaniyati bilan yaqindan tanish bo'lganligi, bu tillarni yaxshi bilganliklarini qayd etgan edik. Yurtni xarobaga aylantirgan, madaniy yodgorliklarni xonavayron qilgan, ilm ahllarini quvg'in etgan (Ibn Qutayba) arab bosqiniga qaramay, qadimgi boy madaniyat izsiz yo'qolmadi. Islom

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi FA Beruniy nomli sharqshunoslik instituti. Ma'naviyat yulduzlari."Xalq me'rosi". T.2001.-B.10.

¹¹ Hayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati, T., 1994 y. 31 bet.

butun madaniyatga, tilga, udum-an`analarga ma`lum darajada o`z ta`sirini o`tkazgan bo`lsada, uning mohiyati o`zgarmadi. Bu xalqimizga xos ezgulik, mehr-shafqat, insonparvarlik, hayr-muruvvat, oqko`ngillik, bag`rikenglik, ilmga tashnalik, o`zga xalqlarga ishonch ehtirom fazilatlaridir. Yunon, Hind, Xitoy madaniyatini juda yaxshi bilgan Markaziy Osiyoning ilm ahligina o`zga xalqlarni boshqalar madaniyati bilan yaqindan tanishtirishi mumkin edi. Shuning uchun ham mashhur matematik al-Xorazmiy hindlarning hisob tizimini, Forobiy Yunonistonlik Arastuning falsafiy ta`limotini, Ibn Sino Gippokrat tibbiyotini yangi davrda yangi bosqichga ko`tardi, imom al-Buxoriy islomiy ta`limotni asosladi Muhammad Payg`ambardan keyingi ikkinchi shaxsga aylandi.

IX-XII asrlarda milliy madaniyatni yuksaltirishga e`tibor davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Mustaqillikni qo`lga kiritgan Somoniylar shajarasining birinchi hukmdorlari milliy madaniy qadriyatlarni barqaror etmasdan turib to`la davlat mustaqilligiga erishish mumkin emasligini angladilar. Jumladan, ona yurt madhi bu davrda shu darajaga ko`tariladiki, zardo`shtiylik eslanmay qoldi. Arab yozuvida badiiy ijodni ta`qiqlamagan holda, samoniylar oddiy xalq anglaydigan tilda yozgan mualliflarni to`la qo`llab-quvvatladilar. Somoniylar nafaqat adabiyot ahliga, barcha olimlarga homiylik ko`rsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida bo`lgan ulkan kutubxonani asosladilar. Ulug` alloma ibn Sinoning hotirlashicha, kutubxona ko`pxonali bo`lib, xonalarning birida arab kitoblari, she`rlari, boshqasiga fiqhga oid kitob tahlangan. Shu tartibda har bir xonada fanning ma`lum sohasiga doir kitoblar jamlangan.

Kitob yozishning kuchayishi, hattotlik san`atining, uni bezash, naqshlar bilan ko`rkam qilish musavvirlik san`atining rivoj topishiga olib kelgan.

Umuman bu davrda qo`lyozmalarni ko`chirish, tayyorlash, to`plash madaniy hayotning muhim sohasiga aylangan. Ma`lumki, asar faqat qo`lda bir nusxadangina yozilar edi. Bosmaxona esa bir necha asrdan so`nggina paydo bo`lgan. Yozilgan asarni nusxasini ko`paytirish, boshqalarga yetkazish, undan nusxa olish zarur edi. Shuning uchun nusxa ko`chirish, asarni ko`paytirishga katta e`tibor berildi. Asta-sekin maxsus nusxa ko`chirish san`ati va hunari shakllandi,

shu tufayli bir joyda yozilgan asarlarni boshqa shahar, o'lkalarida tarqatish imkoni vujudga keldi.

Maxsus nusxa ko'chirish bilan shug'ullanuvchilar, husnixat sohiblari paydo bo'lib, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nusxa ko'chirish bilan shug'ullanganlar. Kitobdan nusxa ko'chirish, kitob savdosining keng yo'lga qo'yilishi hamda ma'rifat ahlini tinimsiz faoliyati tufayli Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, Bag'dod, Damashq singari shaharlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari ko'paydi, kitob savdosi, uni tarqatish bilan shug'ullanuvchilar faoliyati kengaydi. Markaziy Osiyoga Bag'dod, Misr, Eron va Ispaniyaning turli shaharlaridan qo'lyozmalar keltirilib, yurtdoshlarimizning qo'lyozma asarlari boshqa o'lkalarga olib ketiladigan bo'ldi¹².

VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikni larzaga keltirgan og'ir siyosiy vaziyat abbosiylarning Movarounnahr va Xurosonda olib borayotgan siyosatini o'zgartirishga majbur etdi. Birin-ketin O'rta Osiyoda tohiriylar, safforiylar, somoniylar davlatlari tashkil topdi. Mamlakatda sodir bo'lgan bunday siyosiy o'zgarishlardan so'ng Movarounnahr Xurosondan ajralib o'z mustaqqilligini to'la tiklab olish imkoniga ega bo'ldi. Movarounnahrni birlashtirib mustahkam davlat tuzgan davlat arbobi Ismoil Somoniy, 900 yilda Xurosonni ham safforiylardan tortib olib ulkan davlat barpo etdi. Xalifa Somoniylar davlatini tan olishga va unga hukmronlik yorlig'ini yuborishga majbur bo'ldi. Shu tariqa IX asr oxirlariga kelib Movarounnahr xalqlari Arab xalifaligidan abadiy xalos bo'ladi va arab xalifaligidan mustaqil bo'lgan yirik feodal davlat - Somoniylar davlati tashkil topadi.

Somoniylar mamlakatni boshqarishda davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. Mamlakat o'nta devon (devoni vazir, devoni mustafi, devoni amir al-mulk, devoni sohib ash-shurat, devoni sohibi muayid yoki borid, devoni mushrif, devoni mumallikayi xos, devoni muhtasib, devoni avqof, devoni qazo az-ziya) boshqaruvida idora etilgan. Somoniylar hokimiyati yirik zamindorlarning manfaatini himoya qiluvchi mustaqil feodal davlat edi («mulki sultoni», «mulk erlari», «vaqf erlari») X

¹² Hayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk Uyg'onish davri madaniyati, T., 1994 y., 33 b.

asr oxiriga kelib mamlakatda avj olib ketgan o'zaro urushlar uning iqtisodiy va siyosiy qudratiga katta putur etkazdi va Somoniylarning, Qoraxoniylar davlatidan mag'lubiyatga uchrashiga olib keldi. XI asr boshlarida somoniylar davlati hududlarida ikki davlat: Qoraxoniylar va G'aznaviylar davlatlari paydo bo'ldi.

Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib idora qildilar. XI-XII asrlarda O'rta Osiyoda mulkchilikning yangi turi - iqto tartiboti o'rnatiladi («mulki sultoniy», «iqto», «vaqf erlari», «mulk yerlari»). XII asrning 30-yillari oxirida Movarounnahr Sharqdan kelgan ko'chmanchi Qoraxitoylar hujumiga duchor bo'ldi.

IX-XII asrlarda mamlakat ma'naviy hayotining asosi islom mafkurasi edi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat berdilar. Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markaziga aylandi. Masjid, madrasa va xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar ajratildi. Arab tili va uning imlosi joriy etildi.

Movaraunnahrda ko'p o'tmay hatto ona tilidan ko'ra arab tili va yozuvini yaxshiroq bilgan bilimdonlar paydo bo'ldi. Mahalliy bilimdonlar o'z vatanida quvg'in ostiga olinib, ko'pgina tolibi ilmlar xalifalikning markaziy shaharlari - Damashq, Qohira, Bag'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishga va arab tilida ijod qilishga majbur bo'ladilar. Davlatni boshqarishda abbosiylar ma'muriyati ko'plab bilimdon siymolarga muhtoj edi, chunki arablar orasida shu davrda davlat ishiga yaroqli bo'lgan bilimdonlar hali oz, borlari ham zaif edi.

Eng mashhur madaniyat markazi shu davrda Bag'dod shahri edi. Bag'dodda «Bayt ul hikma» (donishmandlar uyi) tashkil etilgan edi. «Bayt ul hikma»da Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ta'lim olganlar. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan ilmiy asoslarga ega edi. Uning ildizlari O'rta Osiyo, ayniqsa, Xorazm, shuningdek Bobil, Eron, Hindistonning antik dunyosiga va qadimgi madaniyatiga borib taqalar edi. IX-XII asrlarda arab tilida asarlar yozgan eng mashhur olimlar Ahmad Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Saxl Masihiy, Abulhayr Xammor, Abu Nosir Arron va boshqalar edi.

XI-XII asrlarda ijtimoiy fanlar ham anchagina taraqqiy etdi. Masalan, shoir Abu Abdullo Rudakiyning prozaik asarlari, Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma»si, Gardiziyning «Zayn-ul-bahor» («Go`zal xabarlar») asari, Majididdin Admoning «Tarixi mulki Turkiston» («Turkiston tarixi»), Nizomulmulkning «Siyosatnoma»si, Yusuf Xos Xojibning «Qutadg`u bilik» asarlari shu davrga oid bo`lib, undan tashqari shu davrlarda Zamaxshariy, Mahmud Qoshg`ariy, Amak Buxoriy, So`zani Samarqandiy kabilar ham ijod etdilar.

Bu davr O`rta Osiyoda me`morchilik san`ati ham gurkirab rivojlandi. Buxoroda Dehgaron, Masjidi Kalon, Namozgoh, Mag`oki Attoriy masjidlari, Surxondaryodagi Jarqo`ton minorasi, Ko`hna Urganchda Faxriddin Roziy maqbarasi, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi, Talxojanbobo masjidi va boshqa yodgorliklar me`morchilik san`atining yorqin namunalari hisoblanadi¹³.

Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar sulolalari hukmronlik qilgan IX-XII asrlarda Movarounnahr sarhadlarida yashagan ulus-elatlar o`rtasida nisbatan osoyishtalik, totuvlik, yaqinlik va hamjihatlik vujudga keldiki, buning orqasida o`lkada moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha tezlashdi, shaharlar hayoti yuksaldi, savdo-sotiq, hunarmandchilik o`sdi, aholi farovonligi ko`tarila bordi.

Movarounnahr shaharlarining jug`rofiy nuqtai nazaridan Buyuk ipak yo`lining eng muhim tutash nuqtalarida joylashganligi, shu bois bu yerda ishlab chiqarilgan, yetishtirilgan har turli ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik mahsulotlari, zargarlik, zeb-ziynat mollarining ayirbosh qilib turilganligi orqasida o`lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti jiddiy yuksalishga yuz tutdi. Buyuk ipak yo`liga tutash aholi manzilgohlarida obod va ko`rkam shaharlar vujudga keldi. Jumladan, birgina Xorazm vohasida X asr boshlarida 10 ga yaqin shaharlar mavjud bo`lsa, XI asr o`rtalariga kelib bunday shaharlar soni 40 taga yetdi.

Somoniylar hukmronlik qilgan IX-XI asrlarda ishlab chiqarish tarmoqlari to`xtovsiz kengayib borgan, ko`plab irrigasiya inshootlari, sug`orish kanallari, suv ayirg`ichlar qurilishi natijasida dehqonchilik madaniyati ancha o`sadi. Somoniylar

¹³ Murtazaeva R. O`zbekiston tarixi.-Toshkent, 2000.B.134.

poytaxti Buxoroga har tomondan olimu-donishmandlar, sayyohu-tijoratchilar, me'moru-hunarmandlar oqib kela boshlagan¹⁴.

Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar sulolasiga mansub ma'rifatparvar hukmdorlarning ilm-fan va madaniyatga doimiy rag'bat berishlari orqasida ko'plab, iste'dod sohiblarining salohiyati, ijodi o'sib, yuksalib borgan. O'sha davr hukmdorlari tashabbusi bilan bunyod etilgan va faoliyat ko'rsatgan kutubxonalarda son-sanoqsiz noyob, qimmatbaho kitoblar, qo'lyozmalar to'planganki, bulardan hozirgi avlod kishilari ham bahramand bo'lmoqdalar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, biologiya, geodeziya, jug'rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi shu davrda qo'yildi.

¹⁴ O'zbekiston tarixi.-Ma'ruzalar matni.-Namangan, 2010.-B.54.

1.2 Ma'muniylar sulolasining xokimiyat tepasiga kelishi va ilm-fan taraqqiyotiga e'tibori.

X asrda Xorazm Somoniylar davlati tarkibiga kirgan. Lekin xorazmshoxlar sulolasi Amudaryoning o'ng qirg'oida xukmronlikni davom ettirdilar. Somoniylar esa Gurganchda qarorgoxga ega bo'lib, faqat Xorazmning chap qirg'og'ini idora qildilar.

X asr oxirida qoraxoniylar zarbalari ostida Somoniylar davlati qulagach, mamlakatni Afrig'iylar sulolasi vakili Abu Abdullox Muxammad boshqara boshladi. U Kot (hozirgi Beruniy shaxri)ni uzining qarorgoxi deb e'lon qildi. Bu davrda Xorazmning chet davlatlar bilan aloqalari yanada kuchaygan edi. Turli soxalardagi bunday munosabatlar mamlakat shimoliy-g'arbida joylashgan Gurganch shaxrining yuksalishiga olib keldi. Natijada Xorazm amalda ikkita mustaqil davlatga bo'linib ketdi: SHimoliy Xorazm poytaxti Gurganch bo'lsa, Janubiy Xorazm xukmdori - xorazmshox Kotda joylashgan edi. Bu ikkala shaxar xam Markaziy Osiyodagi yirik savdo markazlari bo'lgan.

«Ipak yo'li» savdo-sotikdan tashqari turli xalqlarning madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jixatdan yaqinlashuviga, ular o'rtasidagi do'stlikning mustaxkamlanishiga xizmat qildi. Natijada savdo aloqalari urf-odat va an'analarning xam uyg'unlashuviga olib keldi.

X asr mualliflari Xorazm zamini boyliklarini, madaniy ekinlar turlarini, xalq turmush tarzini ifodalovchi ko'pgina ma'lumotlar qoldirganlar. Ular bu o'lkaning uzumzorlar, bog'-rog'lari ko'pligini, boy shaxar-qishloqlardan tarkib topganini, xalqi bilimli, madaniyatli ekanligi to'g'risida yozganlar. Masalan, Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalaridan Abu Mansur as-Saolibiy u erdan qo'ylar, muyna, ajoyib yoylar, tuzlangan baliqlar olib ketilishini bayon qilgan. Xorazmda dexqonchilik yuqori darajada rivojlangan bo'lib, o'sha davrda o'lkada etishtirilgan poliz maxsulotlari, ayniqsa qovun butun dunyoga mashxur edi.

O'lkada xunarmandchilik qam taraqqiy etgan. Buxoro, Samarqand, Gurganch xunarmandlari o'z ustaxonalarini orolbuyi, volgabuyidan tortib, to Xitoygacha bo'lgan xududda tashkil qilganlar. Ular sifati o'sha davr uchun ancha yuqori bo'lgan urush anjomlari, xujalik buyumlarini ishlab chiqarganlar.

992 yil SHimoliy va Janubiy Xorazm xukmdorlari o'rtasida boshlangan urushda SHimoliy Xorazm xukmdori Ma'mun ibn Ma'mun g'alaba qozonadi va xorazmshox¹⁵ unvonini qabul qilib, Gurganchni poytaxt deb e'lon qiladi¹⁵.

Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Gurganch butun Markaziy Osiyoda yirik iqtisodiy, siyosiy markazlardan biriga aylanadi. Xuroson, Movarounnaxr, Xindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar karvonlari shaxarda to'xtab, Ustyurt orqali Volga bo'yiga chiqib, Qopa dengiz atrofiga, Evropa tomon yo'l olardilar. Ustyurtdagi o'sha davrda serqatnov bo'lgan karvon yo'llarining qoldiqlariga ko'ra, ular Xorazmdan chiqib, ikki tomonga ketgan: biri Uchquduq, Buloq, Qushbuloq, Beleuli orqali shimoliy-g'arbga, ikkinchisi Mang'ishloq tarafga yo'nalgan. Bu yo'llar bo'ylab toshdan tiklangan istexkomlar va karvonsaroilar joylashgan. SHuningdek, bu xududda Alan qal'a, SHemaxa qal'a, Devkesgan qal'a-shaxarlari xarobalari, Urga, qiyayo'l, qoraumbat, SHibindi soqchi minoralari, Puljoy, qoraumbat, qiyayul qal'alari qoldiqlari topilgan.

Ma'mun ibn Muxammad (992-997), Ali ibn Ma'mun (997-1009)lar davlat mustaqilligini yanada mustaxkamlab, uning xarbiy qudratini oshirdilar. Endi qo'shni bo'lgan, Xurosonda yaqinda tashkil topgan g'azna podsholigi, arab xalifaligi, Kiev Rusi xam uni tan olar edi. Xorazm boshqa davlatlar siyosatiga xam faol ishtirok etadigan bo'ldi. Xatto Kiev knyazi Vladimir Xorazmga o'z vakillarini yuborganligi xaqida ma'lumotlar bor. Ma'muniylar mamlakat xududini xam ancha kengaytirishga muvaffaq bo'ldilar: endi Xorazm Sirdaryo, Kaspiy (Xozor) dengizi, Volgabuyi oraliqlarini o'z ichiga olgan edi¹⁶.

CHet davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarning o'sishi, mamlakat mustaqilligining mustaxkamlanishi o'lkada ilm-fan, madaniyatning yuksalishiga

¹⁵ Хоразм Маъмун академияси (Хорезмская академия Маъмуна). Китоб-альбом. Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган. -Т.: Шарқ, 2005.

¹⁶ "Фан ва турмуш" журналі. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон

xam o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Xorazmliklar *uzoq* o'lkalarga borib savdo qilishlari natijasida o'zga xalqlap madaniy xayoti bilan tanishish imkoniga ega bo'lganlar. Xorazmda osoyishtalik va tinchlik qo'shni mamlakatlar olimlari, shoiru san'atkorlarini o'ziga tortar edi.

Markaziy Osiyo qadimdan ilm-ma'rifat maskani sifatida shuxrat qozonganligidan chet davlatlar toliblari o'lkadagi Buxoro, Samarqand, Gurganch shaxarlari madrasalarida taxsil olganlar.

Bu yirik shaxarlarda tilshunoslar tomonidan xind, fors, yunon va boshqa tillarda bitilgan asarlar arab tiliga tarjima qilingan, boy kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan.

997 yil boshida xorazmshox Ma'mun ibn Muxammad vafot etib, taxtga Abu-l-Xasan ibn Ma'mun o'tirgach, Beruniy Xorazmga qaytib keladi. Lekin Gurganchga kelmay, eski poytaxt Kotga keladi. Yangi xorazmshoh bu payt yaqin qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi aloqalar o'rnatib, Gurganchga olimlar va adiblarni to'play boshlagan edi. Xorazmshox Ali ibn Ma'mun bilimdonligi va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan mashxur edi. U xukmronlik qilgan davrda Gurganch Sharqning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimu-ulamolarga ijodiy faoliyat uchun ularni moddiy va ma'naviy jixatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Ma'mun ibn Ma'mun saroyidagi olimlar ishtirokida ilmiy anjumanlar, munozaralar o'tkazib turilgan. Ular turli soxalar bo'yicha xilma-xil mavzularga doir ilg'or fikr-muloxazalar bildirganlar, o'zaro baxslashganlar. Bunday anjumanlar g'oliblariga qimmatbaho sovg'alar xadya qilinib, muruvvat ko'rsatilgan. Allomalarga Abu Rayxon Beruniy raxnomalik qilgan bo'lib, xorazmshox vaziri as-Saxriy xam olimlar uchun xaqiqiy ijodiy muxit yaratish borasida o'z xizmatlarini ayamagan. Olimlar Gurganchning boy kutubxonasida mutolaa qilganlar, doimiy ravishda o'z shogirdlari bilan mashg'ulotlar o'tkazib borganlar. Ular Gurganch kurkiga kurk qo'shib, Movarounnaxr va Xurosonda uning nufuzini yanada oshishiga baxoli qudrat xizmat qilganlar.

Tarixga nazar solar ekanmiz, qanchadan-qancha gullab-yashnagan shaxarlar, butun boshli davlatlar turli sabablarga ko'ra qisqa vaqt ichida cho'lu-biyobon singari xuvillab qolganining, xech aybi bo'lmagan tinch axoli qirg'inga uchraganini anglaymiz. Bunday damlarda ayniqsa ijod axli - olimlar, shoir va yozuvchilar qismati ayanchli kechgan. Natijada ular bir umr oilasiz, uy-joysiz, oz muddatga bo'lsa xam tinchlik, xotirjamlik izlab shaxarma-shaxar darbadarlikda yurganlar. Tariximizda bunga misollar son-sanoqsiz. Afsuski, Xorazm shuxratini, ayniqsa ma'rifatparvar xorazmshoh Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun nomini olamga mashxur qilgan «Majlisi ulamo» va u erda ijod qilgan allomalar taqdiri xam xuddi shunday bo'ldi.

Markaziy Osiyo va Xurosondagi voqealardan voqif bo'lgan Bag'dod xalifasi Qodir (991-1031) xar tomonlama o'z qudratini namoyish qilayotgan Xorazmni zaiflashtirish uchun xamma narsaga tayyor edi. Bu vaqtga kelib Xurosonda qudratli davlat tuzgan sulton Maxmud g'aznaviy va uning kuyovi bo'lmish xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'mun (Ma'mun uning singlisiga uylangan edi) o'rtasidagi ixtilofni chuqurlashtirish maqsadida xalifa Xorazm xukmdoriga maxsus elchi orqali qimmatbaxo sovg'alar va «ayn ad-davla va zayn al-milla», ya'ni «davlat ko'rki va din bezagi» unvonini tasdiqlovchi yorliq yuboradi. Xorazmshohga ko'rsatilayotgan bunday xurmat-e'tibor sulton Maxmud uchun og'ir zarba bo'ldi. Natijada turli siyosiy fitnalar uyushtirishga usta bo'lgan sulton Maxmud xatti-xarakatlari shunga olib keldiki, xorazmshoh saroyida isyon ko'tarilib, 1017 yil 17 mart kuni Ma'mun ibn Ma'mun o'z lashkarboshilari tomonidan o'ldiriladi. Taxtga Ma'munning 18 yoshli jiyani Abu Xoris Muxammad o'tiradi. Biroq amalda barcha ishlarni Qo'zg'olonchilar sardori Alp Tegin boshqaradi. Sulton Maxmud kuyovi uchun «o'ch olish»ga o'tlanadi¹⁷.

1017 yilning may oyida xorazmliklar va sulton Maxmud qo'shinlari Xozarasp yaqinida ro'para keladilar. Birinchi bo'lib hujumga o'tgan xorazmliklar mardona jang qildilar. Lekin yaxshi qurollangan, bir talay jangovor fillarga, katta

¹⁷ Ш.Каримов. Р.Шамсутдинов. Ватан тарихи. Биринчи китоб. «Мерос». Андижон. 1995

urush tajribasiga ega bo'lgan g'azna lashkariga bas kelolmadilar. Xorazm qo'shinining bir qismi qirib tashlanib, qolganlari asir olinadi.

G'alaba qozongan sulton Maxmud Gurganchga kirib kelgach, qo'zg'olonchilardan qattiq o'ch oldi. Abu Xoris o'ldirildi. Uning o'rniga o'z -noibi - Oltintoshni taxtga o'tqazgan Maxmud al-Ma'mun saroyidagi olimlarning bir qismini poytaxt g'aznaga olib ketadi.

Xorazmliklar sulton Maxmudga qarshi betinim kurash olib borganlar. O'sha davrda Sirdaryodan tortib to Dnepr daryosigacha bo'lgan oraliqda og'uzlar va bijanaklarning birlashgan davlati kuchga kiradi. Saljuq boshchiligidagi og'uzlarning bir qismi Markaziy Osiyo erlariga xushtor edi. Maxmud g'aznaviy vafotidan keyin taxtga o'tirgan uning o'g'li Mas'ud saljuqiylarga qarshi kurashda engiladi. Xurosonda yangi davlat paydo bo'lib, Xorazm uning tarkibiga kiritiladi.

Lekin o'lkada ilm-fan ravnaqi to'xtab qolmadi. Gurganch yana bir necha asr poytaxt vazifasini o'tadi. Keyinchalik, Amudaryoning suvi qurib borishi natijasida Abulg'ozixon davrida (XVII asr) poytaxt sharqda, yangi Urganch(xozirgi Xorazm viloyati markazi)ga ko'chiriladi.

YUqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarni aloxida qayd etib o'tish maqsadga muvofiq:

- X asr oxiri - XI asr boshlarida Xorazm o'lkasi yirik tarixiy voqealarni boshidan kechirdi. Davlat siyosiy mavqeining mustahkamlanishi uning ijtimoiy-siyosiy ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;
- davlat poytaxti Gurganch turli musulmon mamlakatlardan yig'ilgan buyuk olimlar uchun ijod maskaniga aylandi, Xorazm xukmdori Ali ibn Ma'mun ushbu ilm fidoiylariga ijod uchun qulay sharoitlar yaratib berdi. Ayniqsa uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun xukmdorligi davrida (1009-1017 yillar) Gurganch yirik madaniyat va ma'rifat markaziga aylandi. SHaxarda qomusay bilim soxiblari o'z shogirdlari bilan birgalikda ijod qilganlar;- olimlarning bu uyushmasi «Majlisi ulamo» («Olimlar majlisi») deb atalgan bo'lib, xozirgi kunda mazkur ilmiy markaz «Xorazm Ma'mun akademiyasi» nomi bilan yuritiladi. Buning boisi shuki, jaxon madaniyati tarixida «akademiyalar» kam bo'lmagan. Masalan,

qadimgi YUnon faylasufi Platon (429-384 yillar) o'z akademiyasini tashkil qilgan bo'lsa, keyinchalik, yuqorida qayd etganimizdek, arab xalifasi al-Ma'mun Bag'dod «Bayt ul-xikmat»iga asos soldi. XV asrda esa Samarqandda «Ulug'bek akademiyasi» faoliyat ko'rsatgan;- xukmdorlar o'rtasidagi o'zaro nizo va janjallar akademiya faoliyati to'xtashiga sabab bo'ldi. Bunday voqealar ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat ravnaqiga qay darajada putur etkazishiga ushbu ilm dargoxini fojiali *taqdiri* yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur ilm uyi taqdiri xozirgi avlodni yurtimizdagi tinchlik va farovonlikning qadriga etish, ularni ko'z qorachig'iday asrash lozimligidan ogox qilib turadi, desak yanglishmaymiz.

2.bob. Ma'mun akademiyasi ("Majlisi ulamo")ning shakllanishi va ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

2.1. Ma'mun akademiyasini tashkil etilishi va uning ilm-fan namoyondalari.

Markaziy Osiyo qadimdan ilm-ma'rifat maskani sifatida shuxrat qozonganligidan chet davlatlar toliblari o'lkadagi Buxoro, Samarqand, Gurganch shaxarlari madrasalarida taxsil olganlar.

Bu yirik shaxarlarda tilshunoslar tomonidan xind, fors, yunon va boshqa tillarda bitilgan asarlar arab tiliga tarjima qilingan, boy kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan.

997 yil boshida xorazmshox Ma'mun ibn Muxammad vafot etib, taxtga Abu-l-Xasan ibn Ma'mun o'tirgach, Beruniy Xorazmga qaytib keladi. Lekin Gurganchga kelmay, eski poytaxt Kotga keladi. Yangi xorazmshoh bu payt yaqin qo'shni mamlakatlar bilan yaxshi aloqalar o'rnatib, Gurganchga olimlar va adiblarni to'play boshlagan edi. Xorazmshox Ali ibn Ma'mun bilimdonligi va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan mashxur edi. U xukmronlik qilgan davrda Gurganch Sharqning eng yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylandi. Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimu-ulamolarga ijodiy faoliyat uchun ularni moddiy va ma'naviy jixatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Beruniy 998 yil oxirida qandaydir sabablarga kura Kaspiyning janubi-sharqidagi Gurgon shaxriga Qobus ibn Vashmgir Ziyoriy (978-1012)saroyiga boradi. U Kotga qaytib kelib, keng ko'lamda ilmiy ishlar olib boradi, 995-997 yillar orasida uzilib qolgan kuzatishlarini to'ldiradi va davom ettiradi, Ibn Sino bilan falsafiy yozishmada buladi. Alloma Gurgonda to 1004 yilga qadar muxim turadi. Bu yillar u chuqur ilmiy izlanishlar, astronomik kuzatishlar olib boradi va ancha ilgari Xorazmda boshlagan yirik ilmiy asari «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Osor al-boqiya an al-qurun al-xomiya»)ni yozib tugatadi. Bu orada Gurganchda xorazmshox Ali ibn Ma'mun saroyida olim va adiblarning katta guruxi to'plangan edi. 1005 yili u erga Buxorodan Abu Ali ibn Sino keladi.

O‘z tarjimai xolida Abu Ali ibn Sino quyidagilarni yozgan edi: «...keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib, Gurganch tomonga ko‘chishimga to‘g‘ri keldi. U erda ilmni sevuvchi Abu-l-Xasan as-Saxriy vazir edi. U urning amiri xuzuriga kirdik. Amir Ali ibn Ma‘mun edi. Men uchun, menga o‘xshaganlarga beriladigan miqdorda oylik tayin qilishdi».

Beruniyning Gurganchga kelishi bilan xorazmshox saroyida tuplangan olimlar davrasi to‘ladi. Usha 1004 yilni shartli ravishda Xorazmdagi Ma‘muniylar ilmiy to‘garagining yoki hozirgi ibora bilan aytganda Ma‘mun akademiyasining to‘la shakllangan davri deyish mumkin. Ma‘mun akademiyasida to‘plangan olimlar ruyxati bizgacha etib kelmagan va ularning tarkibi xaqida biz faqat taxminlar qilishimiz mumkin. Lekin Abu Mansur as-Saolibiyning guvoxligicha, Gurganchda tuplangan faqat arabiynavis adiblarning uzi 200 ga yaqin bo‘lgan.

Xorazmshox Abu-l-Abbos Ma‘mun saroyidagi ilmiy to‘garakning akademiya deyilishi masalasiga kelsak, bunga o‘rta asr mualliflaridan Abu-l-Xasan Bayxaqiy (1105-1169) va Nizomiy Aruziy Samarqandiy (1090-1180) guvoxlik berganlar. Xususan, Nizomiy Aruziy Samarqandiy o‘zining «CHaxor mAqola» nomli asarida bu xaqda quyidagicha xabar beradi: «Xorazmshox Abu-l-Abbos Ma‘munning bir vaziri bor edi, oti Abu Xusayn Axmad Muxammad as-Suxayli edi, falsafiy tafakkur, olijanob qalbga ega va ma‘rifatparvar edi. Xorazmshoxning o‘zi xam falsafaga mayli ko‘p va zukkolarga muravvatli edi. Ana shular tufayli saroyda ko‘plab faylasuflar va ulamolar to‘plandi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masixiy, Abu-l-Xayr Xammor, Abu Rayxon Beruniy va Abu Nasr ibn Iroq... Ularning xammasi shu xizmatda xayotiy extiyojlarining xammasi bilan to‘liq ta‘minlangan edi, o‘zaro do‘st edilar, suxbatlar va yozishmalar bilan orom olardilar». Bayxaqiy xam shu so‘zlarni deyarli takrorlaydi.

Ushbu ikki tarixchi «akademiya» iborasini ishlatmagan bo‘lsalar xam xorazmshox saroyida olimlar guruxining to‘planganligini tan olganliklari - katta axamiyatga egadir. XX asrda qator olimlar xorazmshox Ma‘mun saroyidagi ilmiy tugarakni «akademiya» deb atadi. Ular orasida-K.Brokkelman va S.P.Tolstovlarni eslatish mumkin. YU.N.Zavadovskiy esa o‘zining «Abu Ali ibn Sina» degan

kitobining uchinchi bobini «Pereezd v Xorezm i uchastie v «Akademii» Abu-l-Abbasa bin Ma'muna («Xorazmga ko'chish va Abu-l-Abbos ibn Ma'munning akademiyasida ishtirok etish») deb atadi.¹⁸ Demak, Ma'mun akademiyasi bo'lganligi xaqida shubxa bo'lishi mumkin emas.

Gurganch aynan shu davrda gullab yashnagan. Uni *Oq qal'*aning olti metr balandlikdagi mustaxkam devorlari o'rab turgan. Yangi qurilgan chiroyli binolar shaxar ko'rkiga ko'rk qo'shgan. Muqaddasiy «Gurganch kun sayin kengayib borayapti, Xo'jaj darvozasi oldida al-Ma'mun tomonidan qurilgan saroy qad ko'targan. Bu saroy darvozalariga teng keladigani butun Xurosonda *yo'k*. Uning oldiga al-Ma'munning o'g'li Ali saroy qurdirgan. Saroy oldida Buxorodagidek maydon bor», -deb yozadi.⁴

Ali ibn Ma'mun Gurganchda masjidlar, madrasalar, kasalxonalar qurdirgan. Shaxar ko'chalarida tozalik yuqori darajada bo'lgan. Zero, o'sha davrlarda bunga jiddiy e'tibor bilan qaralgan. Yo'llarga silliqlangan toshlarning yotqizilishi, shaxar xayotining a'lo darajada tashkil qilinganligi IX-XII asr shaxarlarining aloxida tartibli bo'lishini ta'minlagan.

Demak, Ma'mun ibn Ma'mun akademiyasi poydevori uning akasi Ali ibn Ma'mun davridayoq qo'yilgan edi.

YUqorida qayd etilganidek, butun Markaziy Osiyodagi singari, Xorazmda xam ilm-fanning rivoj topishida uning ma'lum vaqt arab xalifaligi xududiga kirgani o'zining ijobiy rolini o'ynagan. Arablar Markaziy Osiyo, Eron mamlakatlari bilan cheklanib qolmasdan, yunon-rum madaniyatini o'rganishga astoydil kirishadilar. Bu borada tarjimadan keng foydalanildi.

Ingliz olimi U.Montgomeri «Arablar tadqiqotlari, arablar tafakkuri, arablar risolalari butun borlig'i bilan namoyon bo'lganlarida shu narsa ayon bo'ladiki, arablarsiz Evropa fani va falsafasi bu qadar tezlikda rivojlana olmagan bo'lur edi. Arablar faqat uzatuvchilar bo'lmasdan, Yunon tafakkurining xaqiqiy egalari edi. Ular nafaqat o'zlashtirgan fanlariga xayot bag'ishladilar, balki tadqiqotlar

¹⁸ Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

yoʻnalishlarini yanada kengaytirdilar», - degan xulosaga keladi.⁵ Olim bu erda «arablar» deganda arab tilida ijod qilgan barcha musulmon allomalarini nazarda tutganini xisobga olsak, bu soʻzlar bizning ulkamizdan etishib chiqqan mutafakkirlarga xam taalluqli ekanligi ayon boʻladi.

Ilm-fan ravnaqiga turtki boʻlgan yana bir omil tashqi aloqalarning kengayishidir. Yangi erlarni oʻzlashtirish, xarbiy yurishlar qilish geografiya va aniq fanlarni oʻzlashtirishni talab qilar edi. Xalq farovonligini oshirish, sogʻlom avlodni tarbiyalash uchun esa, albatta, tibbiyotni, ajdodlar maʼnaviy merosini oʻrganish zarur. Xorijiy mamlakatlarning turmush tarzini, madaniyatini oʻrganmasdan turib, ular bilan dustona aloqalarni yoʻlga qoʻyib boʻlmasligi aniq. Bu xol oʻzga xalqlar tillarini oʻrganish zaruratini keltirib chiqardi. SHuning uchun xam xukmdorlar iloji boricha oʻz davlatiga xar tomonlama etuk olimlarni yigʻishga xarakat qilganlar.

Xorazm shahrida oʻz vaqtida Abdushukur Balxiy, Abulqosim Firdavsiy, Abu Nasr Forobiy kabi IX-X asrlarning ulugʻ allomalari ijod qilganlar. Maʼrifatparvarligi, ilm axliga eʼtibori bilan mashxur boʻlgan Maʼmun ibn Maʼmun xam oʻz saroyidagi olimlarga izzat - xurmat koʻrsatib, ularning ijodiy yutuqlariga katta qiziqish bilan qaragan.

Xorazmshox Maʼmun ibn Maʼmun akademiyasi («Majlisi ulamo»)da Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masixiy, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sayd ibn Axmad ibn Muxammad ibn Miskavayx, Abu Mansur as-Saolibiy, Axmad Muxammad as-Saxriy, Zaynuddin Jurjoniy, Abulkarim Zirgʻaliy, Abu Abdullox al-Vazir, Abul Xasan Maʼmun, Abu Muxammad Xorazmiy, Abduavval ibn Abdusamadiy, Abu Azoq, ibn Baxnom, al-Kosiy, Abu Abdullox Iloqiy, Abu Abdulla an-Naysaburiy al-Xorazmiy, al-Xamdakiy, Ixmad Masʼuriy, Abu Muxammad Rakkoshiy, Abu Abdullox Xorazmiy, Abubakr Muxammad Xorazmiy, Axmad ibn Muxammad as-Suxayl al-Xorazmiy va boshqa olimlar matematika, astronomiya, astrologiya, ruxiyot, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, taʼlim-tarbiya, kimyo, adabiyot, musiqa, geografiya, geodeziya,

topografiya, mexanika singari turli fan soxalari bilan shug'ullanib, bu ilmlarning kelajakdagi taraqqiyotiga zamin xozirladilar¹⁹.

Fikrimiz isboti sifatida akademiyada ijod qilgan ayrim allomalar ilmiy merosiga qisqacha tavsif berib o'tish o'rinli:

Abu Rayxon Muxammad ibn Axmad al-Beruniy — 973 yil 4 sentyabrda Xorazmning Qadimgi poytaxti Kat shaxrida tug'ilgan U yoshligidan Afrig'iy xorazmshox Abu Abdullox Muxammad ibn Axmad ibn Iroqning amakisi Ali ibn Iroqning o'g'li Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroqning oilasida o'sadi va tarbiya oladi. 1004 yil boshidan to 1017 yil oxirigacha Gurganchda turib, Ma'mun akademiyasida xizmat qiladi. Mazkur yil oxirida Maxmud g'aznaviy uni o'z poytaxti g'aznaga olib ketadi va olim to vafotigacha, ya'ni 1048 yilga qadar o'sha shaxarda turadi. Lekin orada bir marta- 1025 yilda Xorazmga kelib ketadi. Beruniy ko'p tillarni bilgan qomusiy olim bo'lgan va 153 ta ilmiy asar yozgan, ular asosan aniq fanlarga, ba'zilar tarix, mineralogiya va tabobatga bag'ishlangan.

Beruniy jaxon fani rivojiga katta xissa qo'shgan qomusiy olim, Ma'mun akademiyasi raxnomasi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mas'ud qonuni», «Geodeziya», «Saydana», «Minerologiya» va boshqa asarlarida tarix, falsafa, ta'lim-tarbiyadan tashqari geologiya, astronomiya fanlarining dolzarb muammolariga doir tadqiqotlar olib borgan.

Beruniy o'z asarlariga o'zi tuzgan ro'yxati - «Fixrist»da 113 ta asar nomi keltirilgan. Bundan tashqari Beruniyga atab boshqa olimlar tomonidan yozilgan 25 ta asar nomi xam keltirilgan. Olim mazkur 113 ta asaridan 68 tasining varaqlari sonini ko'rsatgan, ular 6197 varaqni tashkil qiladi, bu 12394 saxifa bo'ladi.

«Qonuni Mas'udiy» asarida Beruniy o'zidan avvalgi olimlar va zamondoshlari tomonidan astronomiya va matematika soxasida erishilgan barcha yutuqlarni to'plagan xamda ularga tanqidiy yondashib, o'z kuzatishlari va tadqiqotlari natijalari bilan to'ldirgan. Asarda Beruniy astronomiya va matematikaning dolzarb bo'lgan barcha muammolariga to'xtalib o'tgan. SHunday

¹⁹ "Fan va turmush" jurnali. №1-3. 2006. Qadim Xorazm civilizatsiyasi (maxsus son).

qilib, «Qonuni Mas'udiy» o'rta asr SHarq astronomiyasi va matematikasining qomusi bo'la oldi.

«Tafhim» - «YUlduzshunoslik san'ati asoslarini tushuntirish kitobi» («Kitob at-tafxim li avail sinaat at-tanjim»), olim xayotligi davrida yoki undan biroz keyinroq arabchadan forschaga tarjima qilingan, XX asrda to'la yoki qisman ingliz, nemis, rus, tojik tillariga tarjima qilingan.

Kitob xorazmlik Rayhona al-Xasan qiziga bag'ishlangan bo'lib, savol-javob tarzida bayon qilingan va 530 savol-javobdan iborat, sakkiz bobga bo'lingan: 1) Geometriya, 2) Arifmetika, 3) Astronomiya, 4) Geografiya, 5) Astrologik astronomiya, 6) Xronologiya, 7) Asturloblar, 8) Astrologiya.

«Asturloblar» asari turli ko'rinishdagi asturloblarni yasash xaqida 70 ta bo'limdan iborat²⁰.

Beruniy alkimyoni ilmiy kimyoga yaqinlashtirishga ulkan xissa qo'shgan olimdir. Uning Xorazmda ma'daniy moddalarning xossalarini o'rganish borasida olib borgan ilmiy izlanishlari fizika, mineralogiya, kimyo kabi fanlarni moddalar diagnostikasining eng ishonchli usuli bilan ta'minladi, deyish mumkin.

«Solishtirma og'irliklar» asari tabiiy fanlar tarixiga yorqin saxifa bo'lib kirdi, chunki olim fan tarixida birinchi bo'lib moddalarning solishtirma og'irliklarini, ya'ni ular vaznining xajmiga nisbatini aniqladi va shu bilan tabiiy fanlarni moddalarni tadqiq qilishning eng ishonchli usuli bilan ta'minladi.

O'zi yasagan maxsus asbob yordamida Beruniy 50 ta moddaning, shu jumladan, 9 metall, 18 suyuqlik 3 ta ma'dan va boshqa moddalarning solishtirma og'irliklarini katta aniqlik bilan o'lchadi. Bu bilan alloma mineralogiyadagi asosiy masala — ma'danlarning zamonaviy tasnifiga asos soldi va birinchi bo'lib, qimmatbaxo toshlarni tasnif etishda shu usulni qo'lladi va bu borada fikrlarini uo'ining «Mineralogiya» asarida bayon qildi.

«Mineralogiya»da qimmatbaxo toshlarga ishlov berish usullari, ularni baxolash va tozaligini tekshirish masalalariga xam aloxida e'tibor berilgan. Undan

²⁰ Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ырта аср Шарқининг йирик илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006.

tashqari, o'sha davrdagi qimmatbaxo toshlarning narx jadvallari xam keltirilib, toshlarni to'g'ri baxolash bo'yicha bir qancha ko'rsatmalar xam berilgan. «Mineralogiya» o'z davri uchun bunday ma'lumotlar tutgan yagona manba xisoblanadi.

Ayniqsa, Markaziy Osiyodagi konlar to'g'risidagi ma'lumotlar amaliy jixatidan muximdir. Masalan, asarda Angren vodiysidagi feruza, Zarafshondagi zok, nushodir, simob, temir, mis, qo'rg'oshin, kumush va oltin, Farg'onadagi toshko'mir, neft va smola, Buxorodagi magnetit, Tojikistondagi oltin, la'l, billur konlari, Afg'oniston, Eron, Xindiston, Afrika, arab mamlakatlaridagi konlar xaqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniy sun'iy ravishda oltin xosil qilish, kimyoviy o'zgarishlar yordamida bir metallni ikkinchisiga aylantirish, mu'jizakor iksir yaratish kimyogarlarning ushalmas orzusi ekanligini yaxshi tushungani xolda, ularning tajriba va asarlarining ratsional negizini topa olgan va o'z asarlarida rivojlantirgan.

Beruniyni Xorazm Ma'mun akademiyasida tabobat bilan shug'ullangan allomalar qatoriga xam qo'shish joizdir. Tib amaliyoti bilan shug'ullanmagan bo'lsa xam, alloma Xorazmda yashagan davrida o'lka tabiati, xayvonot va o'simlik dunyosini chuqur o'rganib, o'z fikrlarini, kuzatuv natijalarini qayd etib borgan. U dorivor moddalar, shu jumladan, o'simliklarni, ayniqsa, diqqat va e'tibor bilan kuzatib, ularning maxalliy nomlarini arab, fors, suryon, yunon, keyinchalik esa xind tillaridagi nomlari bilan taqqoslab, bo'lg'usi kitobi uchun ma'lumotlar to'plagan.

Beruniyning moddalar xossalariga, nomlariga bo'lgan qiziqishlari uning «Xronologiya», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana» asarlarida o'z aksini topgan. «Saydana» («Farmakognoziya») olim ilmiy faoliyatining so'nggi maxsuli bo'lib, afsuski Beruniy uni tugata olmagan va kitob qoralamada, taxrirsiz qolgan. Bu kitob Beruniyning butun umri davomida yiqqan ma'lumotlari asosida yozilgan bo'lib, unda xayotining Xorazmda o'tgan davridagi ilmiy kuzatishlari natijalari xam salmoqli o'rin egallaydi.

«Saydana»da yigʻilgan 1116 ta dori moddaning 107 tasini maʼdaniy moddalar, 880 tasini oʻsimliklar, 101 tasini xayvoniy moddalar, 30 ga yaqinini murakkab dorilar tashkil etadi. Bu dorilarning turli til va laxjalardagi nomiga Beruniy aloxida axamiyat beradi, chunki oʻsha davrdagi tibbiy adabiyotda bu borada juda koʻp xato va chalkashliklar mavjud edi. Beruniy keltirgan arab, yunoniy, suryoniy, xind, fors, xorazmiy, turkiy, sugʻd va boshqa til va laxjalardagi atamalarining soni 4500 ga yaqin boʻlib, bu ishi bilan olim oʻsha davrdagi dorishunoslik atamalarini tartibga solishga katta xissa qoʻshdi.

«Saydana»da keltirilgan boy faktik maʼlumotlar XI asrdagi dorishunsolik va botanika ilmi xaqida toʻliq tasavvur beradi.

Beruniyning ijodida tabiiy fanlar, jumladan geografik bilimlar salmoqli oʻrin egallaydi. Allomaning geografiyaga oid tadqiqotlari koʻproq Xorazmda yashagan davri bilan bogʻliq. U 16 yoshidayoq er yuzida joylarning geografik kengligini aniqlash bilan shugʻullangan va Kat shaxrining geografik kengligini oʻlchagan.

Erni sharini globusda aks ettirish Beruniyning geografiya soxasidagi mashxur xizmatlaridan biri sanaladi va ushbu muxim ishni u 995 yili Kat shaxrida yashab turganida amalga oshiradi.

Beruniy oʻzi yasagan globusga geografik obʼektlarni belgilab, axoli maskanlari oraligʻidagi masofalarga asoslanib, ularning geografik koordinatalarini aniqlagan, yaʼni globus yasashdan maʼlum ilmiy maqsad qoʻygan edi.

Beruniy Kat shaxrida yasagan globus SHarqda tayyorlangan birinchi va shu bilan birga relefli globus xisoblanadi. Xozirgi tadqiqotlarda uning kartografiya tarixida matematik geografiya prinsiplari asosida yasalgan dastlabki globus xam deyishadi.

Beruniyning Gurgonda yozgan yirik asarlaridan biri «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» («Xronologiya») boʻlib, unda tarix bilan bir qatorda matematik kartografiya tushunchalari xam berilgan. Allomaning «at-Tafxim» asaridagi kartada Oʻrta dengiz, Boltiq dengizi, Kaspiy dengizi, Qizil dengiz, Fors qoʻltigi ancha aniq koʻrsatilgan. Arabiston, Xindiston, Xindixitoy yarim orollari

xam ajralib turibdi, Misr, SHom, Makka, Iroq, Fors, Xuroson, Xindiston, Xitoy kabi joylarning geografik o'rne to'g'ri belgilangan.²¹

Undan tashqari, Beruniy globusida YAqin va O'rta SHarq, xududi bo'yicha joy nomlari, asosan, shaxarlar ko'proq ko'rsatilgan. Zero globusni tayyorlashdan maqsad, birinchi o'rinda shaxarlar orasidagi masofalarni belgilash va ular vositasida geografik koordinatalarni aniqlash edi.

Abu Rayxon Beruniyning Gurganchda olib borgan ilmiy faoliyatida geografiyaning bir qancha soxalari - tabiiy geografiya, gidrologiya, mineralogiya, astronomik geografiya kabi soxalarga oid tadqiqotlar o'rin olgan. Jumladan, alloma Gurganchning geografik kengligini aniqlagani ma'lum. Joylarning geografik kengligini xisoblab topishda esa, ularni Quyosh yoki boshqa yoritg'ichlar balandligiga qarab belgilagan.

Dunyo okeani yaxlitligi masalasiga xam Beruniy yangicha yondashadi va o'zining «Geodeziya» asarida Er sharida okeanlar va materiklar nisbatiga, Qadimgi yunon va SHarq geografik tushunchasida mavjud an'anaga xam ma'lum o'zgartirish kiritadi, ya'ni Klavdiy Ptolemey dunyo kartasida aks etgan kontinental konsepsiya - Afrika materigining Osiyo materigi bilan janub tomondan ulanganligi va Xind xamda Tinch okeanlarining *yopiq* dengiz shaklida aks ettirilganligiga qarshi chiqib, bunday nazariyaning asossizligini isbotlaydi. Beruniy tushunchasida dunyo okeani bir-biri bilan qo'shilgan yaxlit suv xavzasini tashkil qiladi.

Amerika qit'asi mavjudligi to'g'risidagi farazni Beruniy «Xindiston» asarida bayon qilindi.

Beruniy o'zining ilg'or duneqarashi orqali Ma'mun akademiyasida xukm surgan bag'rikenglikdan kelib chiqqan xolda o'sha zamondagi din niqobi ostidagi ayrim ilm-fanning mutaassib dushmanlariga qarshi qattiq g'azabini «Geodeziya» asarida quyidagicha ifoda qiladi: «Ularning ashaddiylari jaxolatda o'ziga o'xshaganlarning (ilmga) nisbatan nafratini kuchaytirish uchun uni adashishdan (iborat) deb xisoblaydilar, ular o'zlariga ilm egalarini yo'qotish eshigini ochish

²¹ Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

uchun, xamda olimlarning xalokati va ilmning inqirozi bilan o'z xolatlarini sir caqlash (maqsadida) ilmga bid'at tamg'asini bosadilar». Beruniynig bu fikri xozirgi zamon ba'zi bir diniy mutaassiblikka berilgan ekstremistlarga xam qarshi qaratilganini ko'pchilik beruniyshunoslar ta'kidlagan.

Beruniy qalamiga xaqiqiy tarixiy mavzudagi asar xam mansubdir: bu uning «Xorazmning mashxur kishilari» asaridir. Bu asar «Xorazm tarixi» deb xam ataladi. Asar to'liq xolda saqlanmagan, faqat uning yirik-bir parchasi Abu-l-Fazl Bayxaqiyning Sulton Maxmud g'aznaviyga bag'ishlangan «Tarixiy Mas'udiy» asarida etib kelgan. Bayxaqiy Ma'mun xonadonining xalok bo'lishi sababi, viloyatning qanday qilib Maxmud saltanatiga qo'shib olingani, Oltuntoshning qanday qilib xorazmshox qilib qo'yilgani bilan bog'liq voqealar Beruniyning kitobidan olinganini qayd etadi.

Beruniyning madxiya, raddiya, ishqiy va falsafiy mavzularda she'rlar bitgani xam ma'lum.

Abu Ali Xusayn ibn Abdulloh ibn Sino (980-1037) - butun dunyoda tibbiyot ilmi yuksalishiga asos soldi. Uning «Tib qonunlari», «Najot kitobi» asarlari asrlar davomida SHarq, g'arb mamlakatlarida tibbiyot qomusi sifatida tan olinib, o'quv qo'llanmasi vazifasini o'tab kelgan. Ibn Sino asarlari bizning davrimizda xam qayta nashr qilib borilishi ularning bugungi kunda xam o'z qimmatlarini yo'qotmaganligidan dalolat beradi.

Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlogida tug'ilgan. Boshlang'ich ma'lumotni otasidan, yuqori ilmlarni esa Notiliydan olgan. 17 yoshidayoq, moxir tabib sifatida tanilgan Ibn Sino 996 yili Buxoroga, amir Nux ibn Mansur Somoniy (976 - 997) saroyiga taklif qilinadi. Buxoroda somoniylar sulolasining xukmdorligi tugatilgach, 1002 yildan keyin Gurganchga, xorazmshox Abu Xasan Ali ibn Ma'mun (997-1009) saroyiga keladi. Keyinchalik u erda Ma'mun akademiyasining eng faol olimlaridan biriga aylandi. 1011 yili sulton Maxmud g'aznaviyning ta'qibidan qochib, Gurganchni tark etishga majbur bo'ladi. U avval shimoliy Xurosondagi Obivard shaxriga, u erdan Nishopurga, sung Gurgonga, sulton Qobus ibn Vashmgir Ziyoriy saroyiga boradi. 1014 yili u erni xam tark etib, Rayga, shox

Majduddavla Rustam Buvayxiy (997 - 1029) saroyiga kelib, 1019 yili uning vaziri lavozimigacha ko'tarilishga muyassar bo'ladi. 1021 yili SHamsuddavla vafot etganidan so'ng Ibn Sino ayblanib, xibsga olinadi. 1023 yili xibsdan qutulib, Isfaxonga, Alouddavla Kakuya (1008 - 1041) xuzuriga keladi va umrining oxirigacha uning xizmatida bo'ladi. U 1037 yilda Xamadonda vafot etib, usha erda dafn etiladi²².

Abu Ali ibn Sino tabib va faylasuf (xakim) sifatida mashxur bo'lgan. Uning bu soxadagi asarlari o'rta asrlarda lotinchaga tarjima qilingan va uning o'zi g'arbiy Evropada lotinlashtirilgan Avicenna nomi bilan shuxrat qozongan. Bulardan tashqari, Ibn Sino matematika, -astronomiya, kimyo, ma'danshunoslik, psixologiya, ilohiyot, musiqa va adabiyot bilan xam shug'ullangan va bu soxalarga bag'ishlab asarlar xam yozgan.

Ibn Sino ilmiy duneqarashi quyidagi asrlarida yorqin ifodasini topgan: 1. «Kitob ash-shifo» - falsafiy ensiklopediya; 2. «Kitob an-najot» -falsafiy asar; 3. «Donishnoma» - fors tilida yozilgan falsafiy asar; 4. «Geometriya xaqida risola»; 5. «Arifmetikadan qisqartma»; 6. «Kuzatish asboblari»; 7. «Samoviy jismlar xaqida risola»; 8. «Iksir xaqida risola»; 9. «Tib qonunlari» - tibbiy ensiklopediya; 10. «YUrak dorilari» - tibga oid; 11. «Tibbiy urjuza» - tibga oid she'riy doston; 12. «Zararlarni yo'qotish...» -sog'liqni saqlashga oid; 13. «Salomon va Ibsol» - falsafiy qissa; 14. «Xay ibn YAkzon» falsafiy qissa; 15. «Mantiq, bo'yicha urjuza» - mantiq bo'yicha she'riy asar; 16. «Musiqa ilmi»; 17. Ibn Sino bilan Beruniy yozishmalari — fizika va falsafa masalalariga oid; 18. «Namozning moxiyati xaqida risola» - fikhga oid va boshqalar²³.

Ibn Sino qalamiga mansub turli mavzulardagi 50 ta asarning 60 ta qo'lyozmasi O'zFA Abu Rayxon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik institutida saqlanadi. Ularning orasida eng mashxur «Tib qonunlari», «YUrak dorilari», «Kitob ash-shifo»ning ayrim qismlari, Beruniy bilan yozishmalar va boshqa ilmiy axamiyatga molik asarlar bor.

²² Ш.Каримов, Р.Шамсутдинов. Ватан тарихи. Биринчи китоб. «Мерос». Андижон. 1995

²³ "Фан ва турмуш" журналі. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон).

Ibn Sino o'zi shug'ullangan fan soxalarining qariyb xar birida sezilarli iz qoldirdi, o'z davri fani uchun ilg'or bo'lgan g'oyalarni ilgari surdi. Jumladan, astronomik asboblarni yasash soxasida XVI asrdan «nonius» deb atalgan asbobni ixtiro qildi; tabiiy fan soxalarida zilzila, vulqonlar, torlarning paydo bo'lishi xaqida hozirgi geologiyada o'z tasdig'ini topgan nazariyalarni taklif qildi; moddalarning tasnifi, ilmlar tasnifini ishlab chiqdi; tabobat soxasida diagnostika, terapiya va jarroxlikda yangi va effektiv tashxis va davolash usullarini ishlab chiqdiki, ularning ba'zilar keyinchalik Evropada qayta kashf qilindi. Perkussiya, traxeotomiya, chiqqan elka suyagini to'g'rilash, qand kasalligining tashxisi shular jumlasidandir.

Falsafiy asarlarida Ibn Sino klassik yunon falsafasining davomchisi sifatida uni yangi g'oyalar bilan boyitdi.

Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja'diy (vafoti 1036 yil) asli xorazmlik; afriqiy xorazmshoxlarning xonadoniga tegishli iroqiylar urug'idan, Ma'mun akademiyasining asosiy olimlaridan biri, Beruniyning ustoz, Kat, Gurganchda va 1017 yildan keyin g'aznada ishlagan. Uning matematika va astronomiya soxasidagi tadqiqotlari va asarlari o'rta asrlardagi matematik fanlarni ancha yuqori pog'onaga ko'tardi. Uning asarlari birinchi navbatda shogirdi Beruniyga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Xaqiqatan ham Beruniy tug'ilganidan (973 i.) to Abu Nasrning o'limigacha (1036 i.), ya'ni 60 yildan ortiq muddat ustozining ta'sirida bo'ldi. Bu ikki buyuk olimning bir umr xamkorligi o'rta asrlardagi aniq fanlar uchun favqulodda unumli bo'ldi. Ibn Iroqning matematika va astronomiyaga oid ba'zi asarlari quyidagilardan iborat:

1. «Menelayning «Sferika» kitobining islohi»;
2. «Evklidning «Negizlar» kitobi un uchinchi maqolasida yuzaga kelgan shubhani bartaraf xaqida risola»;
3. «Menelay «Sferika»sidagi jumlaning islox qilish xaqida maqola»;
4. «Osmon sferasidagi yoylardan birini boshqasidan «kesishuvchi shakl» va «tuzilgan nisbat»dan foydalanmay aniqlash xaqida risola»;
5. «To'g'ri burchakli va o'tkimburchakli uchburchaklar uchun yassi va sferik sinuslar teoremasi xaqida risola»;
6. «Ettiburchakni yasash xaqida risola»;
7. «SHoh Almagesti»;
8. «Al-Majisti»dan

olingan ikki markaz orasidaga masofani aniqlash (usuli)»; 9. «Abu Ja'far al-Xozinning «Zij as-safoih» asarida yo'l qo'ygan xatosini tuzatish xaqida risola»; 10. «Muxammad ibn as-Sabbohning Quyoshni tekshirish amalining isboti *xaqida* risola».

Ibn Iroq haqida ataqli matematik, shoir va astronom Umar Xayyom «Matematika bilan shug'ullanganlar ichida eng ulug'i», - degan edi. Ibn Iroqning asosiy xizmati - u Beruniydek shogirdni tarbiyaladi.

Abu Saxl Iso ibn Yaxyo al-Jurjoniyy al-Masihiy (X-XI asrlar) o'z davrining yirik tabiatshunos olimi edi. U astronomiya, matematika, falsafa, tabobat va boshqa tabiiy fanlar bilan shug'ullangan, ular bo'yicha asarlar yaratgan, lekin fan tarixida u ko'prok, tabib sifatida mashxur.

Xorazmshoh Ma'mun ibn Muhammad uni o'z huzuriga taklif qilganida Masihiy bu taklifni qabul qiladi va Bag'doddan Xorazmga keladi. Xorazmda Masixiy Beruniy, Ibn Sino, Abu Xayr, Ibn Iroq kabi zamonasining yirik olimlari bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Ibn Abi Usaybianing yozishicha, Masihiy Ibn Sinoning yaqin do'sti bo'lishi bilan birga, tib sohasida unga ustozlik ham qilgan. Ibn Sino Masihiyga bag'ishlab asarlar ham yozgan. Masihiy sulton Mahmudning g'aznaga taklifini rad etib, Ibn Sino bilan birgalikda Xurosonga qochib ketayotgan vaqtida yo'lda 1011 yidsa 40 yoshida vafot etadi.

Masixiyning qancha asar yozgani ma'lum emas, lekin manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, u Beruniyga atab o'n ikkita asar yozgan, ularning yaratilish davri 998-1004 yillarga, ya'ni Beruniyning Jurjonda bo'lgan davriga to'g'ri keladi. Masihiy bu asarlarini Beruniyga xat orqali jo'natgan. Mavzu bo'yicha ular xar xil bo'lib, uchasi geometriyaga, uchasi astronomiyaga, bittasi iqlimshunoslikka, bittasi etikaga, bittasi tilshunoslikka oiddir. Bu asarlar bizgacha etib kelmagan.

Masihiyning aniq fanlarga oid quyidagi asarlarni yozgani ma'lum: 1. «Geometriya negizlari xaqida kitob». 2. «Al-Majistiy kitobining qisqacha o'zagi xaqida maqola». 3. «Er sukunatdami yoki xarakatda ekanligi xaqida kitob». 4. «(Astronomiya) san'atining qonunlari haqida risola». 5. «Oy tutilishi turlarining

miqdori haqida al-Beruniyga maktub». 6. «Dastlabki haraktlantiruvchi xaqida Aristotel va Galen o'rtasidagi vositachilik kitobi». 7. «Almagest kitobining qisqartmasi». 8. «Tush ta'birlari xaqiagi kitob».²⁴

Masixiy olim bo'lish bilan birga, she'rlar ham yozgan. Uning she'riy parchalaridan birini Beruniy o'zining «Yodgorliklar» asariga kiritgan. Lekin yuqorida aytganimizdek, Masixiyning ilmiy qiziqishlari ko'proq tabobatga qaratilgan edi. Uning tib ilmiga oid «Tib san'ati bo'yicha yuz kitob», «Alloh taoloning insonni yaratish xaqidagi xikmatlarining ochilishi», «Tibbiy ilmlar xaqida kitob», «Umumiy tib xaqida kitob», «Chechakning mohiyati va uni (davolash) tadbirlari xaqida risola», «Vaboni aniqlash, undan saqlanish va paydo bo'lganda uni tuzatish xaqida risola», «Mizoj masalalarini o'rganish xaqida risola», «Tomir urushdan kasalni aniqlash xaqidagi kitob» kabi asarlari bizgacha etib kelgan.

Bulardan tashqari Usaybianing yozishicha, Masixiy xoramzshox Ma'mun ibn Ma'munga atab yuqumli kasalliklar xaqida xam kitob yozgan.

Mazkur tadqiqotlardan birinchisi qomusiy yo'nalishdagi asar bo'lib, o'z davridagi tabobatning qariyb barcha masalalarini qamrab olgan. Bu asardan keyinchalik Ibn Sino xam o'zining «Tib qonunlari»ni yaratishda keng foydalangan.

Uning eng mashxur asari Ma'mun ibn Ma'mun kutubxonasi uchun bitilgan «SHarhlar»dir.

O'sha davrlarda diniy e'tiqod nixoyatda nozik masala bo'lganligi bois bu borada turli xukmdorlar o'rtasida kelishmovchiliklar va nizolar chiqib turgan. Ammo Ma'mun akademiyasining o'ziga xos xususiyati shu ediki, bu erda musulmonlardan tashqari o'zga din vakillari xam ijod qilganlar. Bu xol ilm dargohida baynalmilallik va do'stlik muhiti xukmron bo'lganligidan dalolat beradi. Masixiy xam xristian edi. Biroq, u cherkovlarga bormasdan, diniy farzlarni, ibodatni uyida bajargan.

²⁴ "Fan va turmush" journali. №1-3. 2006. Qadim Xorazm civilizatsiyasi (maxsus son).

Alloma kishilar qanday yashashlari, qanday qilib etuklikka erishishlari mumkinligi xaqida qimmatli fikrlar bildirgan. Insonni jamiyatning ajralmas qismi deb xisoblagan olim, yurt farovonligi uchun xar bir kishi jon kuydirishi lozimligini uqtiradi: «Odamlar orasida eng ulugʻi jamiyatda tutgan yuqori darajasidan oʻz obrusi uchun, yaxshi fazilatlaridan xayrli ishlar uchun, jasurlikdan esa shon-shuxrat uchun foydalanganlaridir»⁶.

Mutafakkirning maʼrifiy-axloqiy qarashlarida ilmga intilish, izlanish, bilimlarni doimiy ravishda boyitib borish zarur, degan gʻoya ilgari suriladi. Uning fikricha, odamlar shu darajada etuklikka erishishlari kerakki, ular jamiyat ravnaqiga shaxsiy ulushlarini qoʻsha olsinlar.

Masixiy kishilarning xatti-xarakatlariga, omma orasida oʻzini tutishiga ayniqsa katta eʼtibor bergan va buni xar kimning aqli, bilimi, tafakkuri darajasiga mos boʻlishini taʼkidlagan: «Aqlli (kishi)ning yaxshi ishi hamma joyda oʻrinli, axmoqning ziyonli xatti-harakati xamisha xavflidir»⁷.

SHaxsiy fazilatlar ichida aql-idrokning asosiy, etakchilik rolini anglagan Masihiy xar bir inson umr boʻyi oʻzini tarbiyalab borishi, bu ishda atrofdagilarning xulq-atvoridan ijobiy xamda salbiy tomonlarini toʻgʻri ajrata bilishi, shularga asoslanib, takomillashishi lozim, deb xisoblaydi. Agar atrofdagilar yaxshi boʻlsa, bu insonga, uning shaxsiy fazilatlariga shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatib, komil inson boʻlib etishuviga zamin xozirlaydi. Mabodo kishi axloqan tuban muxitda boʻlsa, bu ham uning xislatlariga zararli taʼsirini koʻrsatmasdan qoʻymaydi. Ammo mutafakkir qaysi fazilat va xislatlarni egallash, zarurlarini koʻpaytirish yana xar kimning aqli-farosatiga bogʻliq, ekanligini taʼkidlaydi: «Aqlli odam oʻzini shu davrning yaxshi odamlari fazilatlariga qorishmasidan shakllantiradi». Demak, Masixiy inson tarbiyaning obʼektigina emas, balki subʼekti xam boʻlishi lozim, deb xisoblaydi.

Tarbiyadan tashqari ilm oʻrganish, taʼlim olish masalasi xam alloma qarashlarida asosiy oʻrinda turadi. Kishi jamiyatda oʻz oʻrniga, xalq xurmatiga sazovor boʻlishi uchun, albatta, bilimli boʻlishi zarur. Zero, aqli va bilim-insonni xayvonlardan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir. SHu boisdan boshqalar oldida

ilmsizligidan uyalib qolmaslik uchun inson doimo izlanishda, ilmga intilishda yashashi lozim. CHunki, «Aql-idroksiz va bilimsiz odam jonsiz tananing o‘zidir»²⁵

Barcha davrlarda xam moddiy boylikka intilib yashash qoralanib kelingan illatlardan biridir. Albatta, kishi o‘ziga zarur narsalarni qo‘lidan kelgunicha mexnat qilib topishi mumkin. Lekin xamma xam buni afzal bilavermaydi. SHu boisdan xaddan tashqari boylikka xirs qo‘yish, uning yo‘lida iymon, e‘tiqodni xam unutish Masixiy tomonidan qattiq, tanqid qilinadi. Alloma bu odat ochko‘zlik kabi yomon illatga etaklashidan ogoxlantiradi, kishilarni bunday yomon xislatlardan yiroq bo‘lishga chaqiradi: «Kimki o‘zining tirikchiligi uchun zarur bo‘lgan narsalardan qoniqib yashasa, boshqalar mulkini o‘ziniki qilib olishni xoxlamaydi. Darxaqiqat, inson extiyojlarini qanoatlantirish naqadar qiyin ish», - deb afsuslanadi.

Ma‘lumki, o‘rta asrlarda ilm-ma‘rifatli bo‘lish - komil insonning ajralmas, asosiy sifati xisoblangan. Barcha buyuk shaxslar, allomalar bu fazilatni yuqori baxolab kelganlar. Abu Saxl Masixiy xam bundan mustasno emas, u faylasuf, donishmand sifatida o‘zining salbiy xislatlarini bartaraf qilib, ijobiy jixatlarini yanada takomillashtirib, bilimlarini kengaytirib borishga intiladigan, bu yo‘lda betinim izlanadigan kishilarga xurmat bilan qaraydi. Alloma bu yo‘l ularni baxtli kelajakka etaklashiga ishonadi: «Agar odam ko‘p narsani bilsa-buning uzi ajoyib fazilat. Agar u yana o‘z bilimlarini chuqurlashtirib borsa, uning buyuk inson bo‘lishi –muqarrar». So‘zsiz, Masixiyning bu xikmatlari xayotiy tajriba, serqirra bilimlar mahsulidir.

Xulosa qilib shuni ta‘kidlash joizki, Abu Saxl Masixiy Xorazm Ma‘mun akademiyasida o‘ziga xos nufuzga, ilmiy-pedagogik, axloqiy merosga ega bo‘lgan buyuk alloma. Uning yuqorida bayon qilingan xikmatlari yoshlarimizning baxtli kelajak qurishdek sharaflı ishlarida yaqin xamrox bo‘lishiga, o‘z maqsadlariga erishishlarida yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qilishiga shubxa yo‘q. Buning uchun esa ustozlarimiz alloma o‘g‘itlaridan o‘z tarbiyaviy faoliyatlarida samarali foydalanishlari lozim.

²⁵ Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

Abu Ali Axmad ibn Muxammad ibn *YA'qub* ibn Miskavayh – atoqli tarixchi, ma'rifatparvar. Musulmon mamlakatlari o'tmishini tadqiq qilgan allomaning «Xalqlarning tajribalari xaqida kitob» asarida qimmatli tarixiy ma'lumotlar mujassamlashgan. «Jovidoni Xirad» risolasida esa uning ma'rifiy-axloqiy qarashlari aks ettirilgan. Ular ma'no-mazmunining teranligi bilan kishini o'ziga maftun etadi. Mavzulari xilma-xil bo'lgan mazkur merosni muxtasar bayon qilamiz (mazmuni):

«Ey farzand! Sen xech qachon ulug'lik ketidan quvlama! Ulug'likni izlash va barchadan ustun bo'lishni xoxlash chin inson xislati emas. Kiyinish va yasantusan bilan orbu topishni o'ylama. Chunki bunday qilish yasama obro' topishga urinishdir».

«Kishi uchun eng foydali, dilni yorituvchi narsa - qanoatdir. Eng zararli narsa - xirs va g'azabdir».

«Ey o'g'lim! qilayotgan ishingda kichkina gunox bo'lsa xam uni kichik deb xisoblama. Odamlarga yaxshilik qilishning tolibi bo'l, ushbu ishingdan senga foydalar etadi. Kuching borligi uchun dushmani xadeb ezaverma, jonidan to'ygach, payt poylab, o'zingni xalok etadi. Birovning yolg'onchi ekanligini bilsang, gapida jon bordir, deb yana uning gapiga chipa-chin ishonma! Shubxali va gumonli ishlarga qo'l urma, so'rovini noumid xolda qaytarma. O'zinga yoqmagan narsalarni birovga ravo ko'rma. Birovga qilingan xar bir yaxshilik yoki yomonlik kuni kelib uringa qaytishini esingdan chiqarma!»

«Insonga qanday musibat kelsa xam uni to'g'ri matonat ila qabul qilsa, u — baxtiyordir».

«Odamlarning eng yomoni shulki, u biror kishi bilan do'st tutinmaydi. Boshqalar xam uning xulqi yomonligidan do'st tutinmaydilar».

«Insonlarning o'rtasini islox qiluvchi va ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishga muxabbatli bo'lganlari podshoh bo'lishlikka xaqlidir».

Ma'rifiy-axloqiy qarashlarini bayon etishda Abu Ali Axmad ibn Miskavayx o'zidan avvalgi davrlarda yashab o'tgan donishmandlar nasixatlaridan keng foydalanadi. Masalan, Foysoqurs xakim nasixatlaridan saylanma. U aytadi: «Ey

aziz, sen doim fozil kishilar bilan do'st tutin, ularning suxbatini qidir. O'z nafsingni ko'p eyishdan saqla, g'azablanishdan, ko'p uxlashdan, *qabih* ishlarni qilishdan *qoch*! O'limni xamisha yodda tut, shunga qarab ish qil. Kasbu maishatda o'rtacha yo'l tut».

YAna uning so'zi: «Xar kim do'st tutishga qodir bo'lmasa, dushmanga qarshi ish tutishda xam ojiz bo'ladi. Kishining so'ziga qarab emas, ishiga qarab bilish mumkin».

Fors donishmandlaridan Barzu-al-Xakim nasixatlari. U yozadi: «Xar bir narsaning paydo bo'lishi uchun biror bir sabab bo'ladi. SHuning uchun nimaiki paydo bo'lgan bo'lsa, avvalo uning sababini qidirmoq lozim. YAxshi xayot kechirish sababi murosa, sirning oshkor bo'lmaslik sababi birovlarining sirini ochmaslikda, iffat sababi o'zgalarga yomon niyat bilan ko'z tikmaslikda, gina sababi badfe'llik, do'stlik sababi ochiq yuzlilik, judolik sababi azob, adovat sababi xilof, xorlik sababi ta'ma, izzat sababi qanoat, najot sababi rostlik!»²⁶

Qays ibn Soidning o'z o'g'liga qilgan nasixatlaridan aytadi: «Ey o'g'lim! SHunday masal bor: «Sen birovga zulm etsang, senga xam zulm qiluvchilar bor». SHu maqolga amal qil, xech kimga zulm qilma. Molu davlatdan Xazina tayyorlamay, ilmdan xazina qil. Do'st-birodarlaringni o'zingdan yzoqlashtirma, xar bir ishni maslaxat bilan a'lo qil».

Ibn Miskavayx tarix fani inson tafakkurini o'zida mujassamlashtirib, bo'layotgan voqealarni tushunish va turli vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishga o'rgatadi, deb xisoblaydi. Tarixchi vazifasi esa tarix xar bir jarayoni takrorlanib turadigan voqealar tizimidan iborat ekanligini nazarda tutgan xolda odamlar u yoki bu vaziyatlarda o'zlarini qanday tutganligi xaqida xikoya qilishdir. SHuning uchun u yoshlarni kundalik turmush va katta siyosatda ax,amiyati beqiyos bo'lgan tarixni mukammal bilishga, duneqarashlarini boyitib borishga chaqiradi.

Demak, Xorazm Ma'mun akademiyasining boshqa mutafakkirlari singari Abu Ali Axmad ibn Miskavayxning ma'rifiy-axloqiy g'oyalarida xam kishilarni xaqiqatparvarlikka, axloqiy kamolotga, do'stlik va ilmu xikmatga xurmat bilan

²⁶ Хоразм Маъмун академияси. Илмий монографик тўплам. - Тошкент, 2005.

munosabatda bo'lishga da'vat yangraydi. Bu qarashlar xam manguligi, mazmunan chuqurligi bilan bugungi kun ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga loyiq.

Abul Xayr al-Xasan Suvar ibn Bobo ibn Xammor (Behnom) -akademiyada falsafa, tibbiyot fanlari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olim. Axloqshunoslik muammolarini xam o'rgangan Xammor bu sohada qimmatli meros qoldirgan. Uning «Tabiblarni sinash xaqida kitob» asari mashhurdir.

U Bag'dodda tug'ilib, o'sha davrda Forobiyning shogirdi bo'lmish YAxyo ibn Adiyning (vafoti 973 yil) qo'lida falsafa va mantiqdan ta'lim olgan. Keyinchalik Ma'mun akademiyasida ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Umrining so'nggi yillarini g'aznada o'tkazgan.

Xammor suryon tilini yaxshi bilgan va shu tilda yozilgan bir qancha kitoblarni, jumladan, Aristotelning «Meteorologiya»sini suryoniy tilidan arab tiliga tarjima qilgan. O'zi falsafa va tabobatga oid bir qancha asarlar, shu jumladan, «Tabiblar imtixonini xaqida kitob», «Xomiladorlar xaqida kitob», «Qariyalar tadbiri xaqida kitob» kabilarni yozgan, lekin ular bizgacha etib kelmagan.

Olimning qalamiga mansub asarlardan faqat birginasi - «Suv bug'ining asorati sifatida xavoda xosil bo'ladigan kamalak va tuman xaqida kitob» o'rta asr bibliografi Ibn Nadim (X asr) tomonidan zikr etilgan. Beruniy ham o'zining dorishunoslikka oid «Farmakognoziya», asarida Xammorning «Pavel kitobiga sharh» va «Ovqatlar xaqida kitob» kabi tibga oid ikkita asaridan iqtiboslar keltiradi.

Xammor ko'proq tibning nazariy masalalari bilan qiziqqan, uning asarlarida anatomiya, qariyalarning parhezi, tabiblarni sinash, *ozig* moddalar va epilepsiya masalalari bayon etilgan. Zamondoshlari uni «ikkinchi Gippokrat» deb atashgan edi²⁷. XIII asrda yashagan matematik SHamsiddin Samarqandiyning aytishicha, Xammor tengyonli uchburchaklarning asosidagi burchaklariga oid bir teoremani isbotlagan. Bu teorema uning nomi bilan «ash-shakl al-xammoriy», ya'ni «Xammoriy teoremasi» deb mashxur bo'lgan.

²⁷ "Fan va turmush" jurnali. №1-3. 2006. Qadim Xorazm civilizatsiyasi (maxsus son).

Xammor yunon tibbiyotidan yaxshi xabardor bo'lib, bu sohadagi ilmiy yutuqlari bilan butun SHarqda tanilgan. Ibn Xammor xam akademiya ilmiy munozaralarida faol ishtirok etib, katta obro'ga ega bo'lgan. Uning bu erdagi faoliyati ijodidagi eng sermaxsul davr edi.

Ma'mun «Majlisi ulamo»si tarqatilgach, sulton Maxmud Xammorni o'zi bilan poytaxt g'aznaga olib ketadi. Xammor umrining oxirigacha Maxmudning shaxsiy tabibi vazifasini bajaradi. Sulton allomaga iltifot ko'rsatib, Xammor degan joydan xususiy er ajratib beradi va shundan so'ng uning ismi-sharifiga bu nom qo'shilib aytiladigan bo'ldi.

Abul Xayr ibn Xammor o'zining shaxsiy xayotdagi qat'iyatliligi, ilmga, yangi bilimlarga intilishi bilan ajralib turgan. Masalan, uning islom dinini qabul qilishi to'g'risida quyidagi rivoyat mavjud: bir kuni u (Xammor) maktab yonidan o'tib ketayotib, o'qituvchining «aliya, lyam, mim» surasini chiroyli qiroat bilan o'qiyotganini eshitadi va bir soat davomida ko'z yoshi qiladi. SHu kuni kechasi tushida Payg'ambar unga «Ey, Abu-l-Xayr! Sendek etuk bilimlar soxibiga mening e'tiqodimni rad etish yarashmas», - deydi. Keyin alloma islomni Payg'ambar qo'lidan qabul qiladi, fikxni o'rganib, qarib qolganiga qaramasdan, Qur'onni yod oladi va e'tiqodini takomillashtiradi.

Mutafakkir ijodiy merosida axloq, tarbiya masalalariga aloxida e'tibor berilgan. Lekin, afsuski, allomaning ushbu soxadagi qarashlari bayon etilgan asarlari bizgacha etib kelmagan va tadqiq qilinmagan. Tarixchi al-Bayxaqiy uning bizga noma'lum bo'lgan Abu Sa'd ismli vazirga atab foydali maslaxatlarni o'z ichiga olgan risola yozganini qayd etadi. Ibn Xammor inson birinchi navbatda atrofdagilarga xush yoqadigan, ravon bo'lishi kerak, deb xisoblaydi. Lekin nutq qanchalik chiroyli bo'lmasin, unga yolg'on aralashar ekan, bu dastlab kishining o'ziga ziyon etkazishini ta'kidlab, bunday xollarda to'g'riso'z bo'lishga chaqiradi.

Tabib sifatida alloma kishi sog'ligini asosiy boylik deb xisoblaydi va uni extiyot qilish lozimligini uqtiradi. Bunda parhez qilish katta axamiyatga ega ekanini aytadi. Undan nimalarni iste'mol qilishini so'rganlarida, Xammor

«To‘yingan, yumshoq, foydali va toza narsalarni», - deb javob bergan. Ibn Xammor xar bir inson tozalik va ozodalikka rioya qilishi zarur deb xisoblaydi.

SHuningdek, ma’rifatparvar alloma kishilarni to’g’rilikka, kamtarlikka chaqiradi. Inson o’zida bor mol-dunyo bilan qanoatlanib, qo’lidan kelgunicha boshqalarga faqat yaxshilikni ravo ko’rganidagina uning shaxsiy xayoti baxtli kechadi, orzulari ruyobga chiqadi, deb xisoblaydi: «Kimki ochko’zlik qilib, o’zgalarga tegishli narsalarni olishni xoxlar ekan, u kishilar lan’atiga duchor bo’ladi. Kimki yaxshilik yoki yomonlik urug’ini ekar ekan, uning xosilidan avvalo o’zi baxramand bo’la boshlaydi». Abul Xayr ibn Xammorning ma’rifiy-axloqiy qarashlaridan ta’lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanishimiz maqsadga muvofiq. Zero, «Toma-toma ko’l bo’lur» deganlaridek, Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalarining ma’rifiy-axloqiy qarashlariga ham izchillik bilan muntazam murojaat qilib turgandagina, yoshlar ma’naviyatini boyitish, ularning barkamol insonlar bo’lib etishishiga erishishimiz mumkin.

Abu Ali Hasan ibn Horis al-Xorazmiy al-Hububiy (X-XI asrlar) Xorazmda qozilik bilan shug’ullangan, matematikani yaxshi bilgan. Uning qalamiga mansub quyidagi matematik asarlar mavjud:

1. «Arifmetika, aljabr va almuqobala kitobi».
2. «Arifmetika».
3. «Arifmetika ilmida tadqiq va tasnif kitobi». Bu asar «Arifmetika, aljabr va almuqobala *tadqiq* kitobi» nomi bilan xam ma’lum.
4. «Aljabr va almuqobala xisobida vasiyat masalalarini sharxlash usulini tushuntirishni va geometrik usullarni, «ikki xato», dinor va dirxam usuli bilan amal qilishni tadqiq qilish kitobi». Bu risolalarning oxirgisida u algebraik tenglamalarni echish usulini takomillashtiradi. Keyinchalik Jamshid Koshiy o’zining «Arifmetika kaliti» asarida bu usuldan foydalangan.
5. «Arximed muqaddimalari xaqida risola». Bu asardan Beruniy «Vatarlar» kitobida iqtiboslar keltiradi.
6. «Matematika». Bu asar meros bo’lish masalalariga bag’ishlangan bo’lib, uning O’zbekiston musulmonlar idorasida XIII asrga mansub qo’lyozmasi saqlanadi. O’zining matematik asarlarida Hububiy Xorazmiy ilmiy an’analarini davom ettirdi.

Abu Fadl Ahmad ibn Muhammad as-Saxriy (X-XI asrlar) oʻrta asr manbalarida yozilishicha, oʻz davrining komil adibi va shoiri boʻlgan, moxir kotib, etuk olim sifatida xam tanilgan. YOshligida Xurosondagi buvayxiylar vaziri Sohib Ismoil ibn Abbod (938 - 985) xizmatida boʻlib, uning huzuridagi mushoiralarda ishtirok etgan.

Xorazmshoh Abu Abbos Maʼmun ibn Maʼmun xukmronligi davrida (1009 -1017) Saxriy Xorazmga keladi va shoh tomonidan iliq kutib olinadi. Saroyda birmuncha vaqt xizmatda boʻladi, lekin 1015 yilda *qatl* qilinadi²⁸. Saxriyning qatl qilinishi sabablari maʼlum emas. Adabiyotlarda bu xususda ikki xil fikr mavjud. Birisiga koʻra Saxriy siyosiy sabablar tufayli, boshqasiga koʻra qoʻpol va badfeʼlligi sababli *qatl* etilgan.

Xorazmda Saxriy Abu Abbos Maʼmunga, uning vaziri Abu Xusayn Saxliy (Suxayli)ga hamda bustlik mashxur olim va shoir Abu *Fath* Bustiyga (vafoti 1009 y.) atalgan «Devonga toʻplangan risolalar kitobi» hamda «Jildlangan sheʼrlar devoni» kabi asarlar yozgan, lekin ular bizgacha etib kelmagan. Saxriyning sheʼr va madxiyalaridan parchalar oʻrta asr mualliflaridan Saolibiy (X — XI asr), YOqut Xamaviylarning (XII asr) asarlariga kiritilgan.

Ahmad ibn Muxammad Xusayn as-Sahliy (Suxayliy) al-Xorazmiy (X-XI asrlar) xorazmshoh, Maʼmun ibn Maʼmunning vaziri, zamonasining bilimli va fozil kishilaridan boʻlgan. Olim, adib va shoirlarga homiylik qilgan, ularning xurmatiga sazovor boʻlgan. Xorazm Maʼmun akademiyasida xizmat qilgan olimlarning, xususan, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Xomid, Saxriylarning unga atab asar yozganliklari bunga yaqqol dalildir.

1013 yilda Saxliy siyosiy sabablarga koʻra Xorazmni tark etib, Bagʻdodga, Iroq xukmdori Faxr Muluk Abu gʻolib Muxammad ibn Xalaf xuzuriga ketadi va u erda yaxshi qabul qilinadi. Biroq oradan koʻp oʻtmay Faxr Muluk vafot etadi va Saxliy Bagʻdodni tark etib, avval Tikrit va Dujayl shaxarlariga, soʻng Surramanraʼa (Samarra)ga keladi va shu erda 1027 yilda vafot etadi.

²⁸ "Фан ва турмуш" журналы. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон).

Hoji Xalifa, YOqut Xamaviy va Saolibiyning ma'lumotlariga ko'ra, Saxliy she'riyat va ilm homiysi bo'lishi bilan birga o'zi ham ilmiy asarlar va she'rlar yozgan. Uning «Vasflar va qiyoslar to'g'risida Sahayli bog'i» nomli asari xamda bir qancha she'rlari, jumladan, Muxammad ibn Xomidga atab yozgan she'ri ma'lum. Saxliy ijodidan she'riy parchalar Saolibiy, YOqut Xamaviy asarlarida keltirilgan.

Abu Abdullox Muxammad ibn Homid (X - XI asr) zamonasinig fozil kishilaridan, etuk shoir va davlat arbobi bo'lgan. YOshligida mashhur xorazmlik shoir va davlat arbobi Abu Sayd Ahmad ibn SHabib SHabibiyning (X asr) qo'lida kotiblik qilgan. SHabibiyning vafotidan so'ng Ibn Homid buvayhiylar vaziri Soh'ib Abu Qosimning yaqin kishilaridan biriga aylanadi. Vazir uni qumga barid (pochta mudiri) lavozimiga tayinlaydi. Ko'p o'tmay Ibn Homid xorazmshox Ma'mun ibn Muxammadning (992 - 997) taklifi bilan Xorazmga keladi va tez orada xorazmshoxning ishonchini qozonadi va unga elchilik ishlari topshiriladi. Xususan, Muxammad ibn Homid Balxga, sulton Maxmud saroyiga elchilikka yuboriladi. U erda Ibn Xomid sulton Maxmudning vaziri, o'z davrining Taniqli siyosiy arbobi va shoiri Abu Fatx Abi ibn Muxammad Bustiy Kotib bilan tanishadi va do'stlashadi. Bustiyning Ibn Homidning fazilatlarini ta'riflab qasida yozgani ma'lum.

Bundan tashqari xorazmshox tomonidan Ibn Xomidning Gurgonga, Qobus ibn Vashmgir saroyiga xam elchi qilib yuborilgani, Qobus esa uni yaxshi qabul qilib, vaziri Abu Sayd Muxammad ibn Mansurga elchiga katta xurmat va extirom ko'rsatishni buyurgani xaqida Saolibiy «Yatimat ad - daxr» asarida xabar beradi.

Abu Mansur as-Saolibiy Xorazmiyga yuqori baxo berib, quyidagilarni yozadi: «Iboralarining go'zalligi bilan elchilik xunarining yuqori darajasiga ko'tarildi, yuraklarni rom etdi, aqlni sexrladi. (Uning) odobga bo'lgan munosabati va shaxsiy fazilatlaridagi komilligi (uni) Abu-l-Fatx Ali ibn Muxammad al-Bustiy bilan yaqinlashtirdi. Ular o'zaro munosabatda bo'lib, do'stlashdilar, kup muloqotda bo'ldilar, birgalikda (do'stona) suhbatlarda ishtirok etdilar, majlislarda bir-birlarining fikrlarini boyitdilar. Abu Abdullox o'z tilini (al-Bustiy she'riyati)

saxnasidan o'tishga majbur qildi, uning tizginidan ushlab, yaxshilik nishonini urishga, xaqiqat qonunlarini egallashga intildi»²⁹.

Ibn Homidning qancha va qanday asarlar yozgani noma'lum. Biroq Saolibiy kitobida uning ustози SHabibiy hamda vazir Sohigba bag'ishlagan qasidalaridan parcha keltirilgan.

Abul Abbos Muxammad ibn Homid ijodini, ma'rifiy-axloqiy qarashlarini taxlil qilar ekanmiz, allomaning yuqori mansablarda ishlashi, safdoshlari orasida doimo xurmat-e'tibor qozonishi bilimdonligi, yaxshi fazilatlar soxibi bo'lganligi, tadbirkorligi maxsuli ekanligiga amin bo'lamiz.

Abu Mansur Abdumalik ibn Muxammad ibn Ismoil as-Saolibiy — tarix, adabiyot, mantiq, tilshunoslik bo'yicha qomusiy bilimlar soxibi, akademiyaning eng sermaxsul ijodkorlaridan. Kishilar axlqi, so'zlashish odobi muammolariga oid ko'plab asarlar muallifi bo'lgan alloma bizga boy meros qoldirgan. Saolibiy «Asr ahllarining fozillari xaqida zamonasining durdonasi», «Afzal xulqlar», «Til qonunlari va arab tili sirlari», «Ajoyib ma'lumotlar» va boshqa asarlar muallifi.

Abu Mansur as-Saolibiy 961 yilda Nishopurda tug'ilgan, shu erda boshlang'ich ta'lim olgan. U yoshligidan shaharning ko'pchilik olimu shoirlari suxbatlaridan bahramand bo'lgan. Allomaga amir va shoir Abu-l-Fadl al-Mikoliy xomiylik qilgan. Saolibiy savdo ishlari bilan xam shug'ullangan. SHu boisdan u ko'p o'lkalarda bo'lish imkoniga ega edi. CHunonchi, 992-993 yillari Saolibiy Buxoroga keladi. Bu shaharda ham olimu fozillar davralarida bo'lib, ko'plab do'stlar orttiradi, mushoiralarda ishtirok etadi. Bir qancha vaqt- o'tgach, alloma Xorazmga-Ma'mun saroyiga yo'l oladi. Saolibiy o'zining xorazmshox saroyiga kelishi sabablari, u erdagi ijodi xaqida quyidagilarni yozadi: «Kitobning («Yatimat ad-daxr» asarining) dastlabki uch bo'limini tugatgach, zamon (o'zgardi), xayotim turli to'siq va baxtsizliklarga duch keldi... Xorazmshox Abul-Abbos saroyida bo'lish muallifga (Saolibiyga) ijobiy ta'sir qildi, amirning fe'lidan ilxomlanib, qo'lyozmani uning kutubxonasiga loyiq xolatga keltirdi»

²⁹ Бабашев Ф. Хоразм Маъмун академияси - маърифат ўчоғи. -Т.: Иқтисод-молия, 2005

Saolibiyga sulton Maxmudning akasi Abu Muzaffar Nasr ibn Sabuktegin xam xomiylik qilgan. Alloma taxminan 1038-1039 yillarda Nishopurda vafot etgan.

Abu Mansur as-Saolibiy xayotda ko‘p qiyinchiliklarni boshidan kechirgan. Zamonasidagi notinchliklar, saroylardagi ziddiyatlarga qaramasdan, as-Saolibiy betinim izlanadi, -ijodiy mahoratini takomillashtirib boradi. Buni allomaning o‘z ijodi xaqidagi quyidagi ma’lumotlardan xam anglasa bo‘ladi: «Ko‘pincha yozayotgan narsamni tugata olmasdan, yarmiga kelib to‘xtab qolardim. CHunki (turli) voqealar (menga) xalaqit berar edi... Taqdir mendan o‘tkir tishlarini tortishidan, vaqt, daqiqalar befarqligidan, azob-uqubatlar orasidagi osoyishtaliklardan foydalandim».

Ko‘rinib turibdiki, o‘sha davr allomalari qatori as-Saolibiy qam darbadarlikning barcha qiyinchiliklarini boshidan kechirgan. Lekin mutafakkir shaxsiy fazilatlar, xush axloqidan, sof vijdonidan ayrilmagan. Uning ajoyib xislatlaridan biri-sodiq do‘stligi va vafodorligi to‘g‘risida Abu-l-Fars Bustiyning as-Saolibiyga bag‘ishlangan quyidagi misralaridan bilishimiz mumkin (mazmuni): «YUragim Nishopurdagi do‘stimda qolgan. Jahonda (barcha) yurtlarni kezsang xam bunday do‘st topilmas. Unga ajoyib fazilatlar – aqli, ochiq ko‘ngillik va so‘zamollik xos». Albatta, bunday fazilatlar sohibi bo‘lgan Saolibiy xorazmshoh Ma’mun saroyida ham xurmat-e’tiborga sazovor bo‘lgan. Uning ijodiy merosi nazmiy asarlar xamda leksikologiya va adabiyotshunoslik tarixiga doir ilmiy risolalardan iborat.

YUqorida aytib o‘tganimizdek, Saolibiy umri davomida bir necha xukmdorlar saroylarida xizmat qilgan, ularga bag‘ishlab she’rlar, qasidalar bitgan. Saolibiyning o‘sha davrdagi ilm va madaniyat markazlari bo‘lgan shaxarlar va mamlakatlar xaqidagi she’rlari xam bor. Bizgacha uning Jurjon, g‘azna va Xorazmga oid she’rlari etib kelgan. Ularda shoir bu shaxarlar tabiati, suvlari, bog‘u-rog‘larini maxorat bilan tasvirlaydi.

Abu Mansur as-Saolibiy o‘zining sermaxsul ijodi davomida yaratgan barcha asarlarida to‘g‘rilik, yaxshi xulq-atvor, ayniqsa shirinsuxanlik va suxandonlik

xislatlarini yuksak baholaydi. Masalan, «Ajoyib ma'lumotlar» asarida turli toifadagi odamlar fazilatlariga oid maxsus bob bor. «Arab tilidan foydalanish odobi quyoshi» risolasining nomi xam o'z mazmunini to'la yoritib turibdi. «Metonimiyalar va imo-ishoralar» asarini Saolibiy xorazmshox Ma'mun ibn Ma'munga bag'ishlagan. Ma'mun iltimosiga ko'ra, alloma asarni to'ldirib, to'qqizta bob qo'shib, ikkinchi nusxasini xam tayyorlaydi.

«Hotiqlik xislatlari va mukammal nutq, sirlari» asarining mazmuni xaqida Saolibiy kirish qismida «Kitobning-ayrim qismlarida dunyodagi eng yorug' yulduzlar, eng yuksak fazilatlar soxiblari bo'lgan asrimiz notiqlarining nasriy (iboralarini) yig'dim, ularning ayrim qismlarini, she'rlarini, «Yatimat ad-daxr» asarimda joylashtirgan amir-shoirlar asarlaridan namunalar keltirdim», - deb yozadi.

Demak, alloma o'zidan oldingi davr so'z ustalari – notiqlar meroslaridan foydalanib nutqni o'stirish tarafdori. Notiqlik har bir kishi uchun zarur bo'lgan muxim fazilat, o'z fikrini o'zgalar uchun tushunarli, qiziqarli va chiroyli qilib etkaza olish - katta san'at. Bu fazilatning kishi xayotidagi axamiyati beqiyos ekanligini asoslash Saolibiy axloqiy merosida asosiy yo'nalishni tashkil qiladi. *Nutq* san'atidan tashqari xusnixat go'zalligini xam mutafakkir ziyoli uchun yarashadigan xislat deb biladi.

Saolibiy ijodiy merosini, axloqiy qarashlarini o'rganishda «Kitob latoif al-maorif (Ajoyib ma'lumotlar)» ayniqsa katta axamiyatga ega. Bu asar bizgacha islom dini paydo bo'lishidan tortib, to alloma zamonigacha bo'lgan davrlar oralig'ida yashagan mashxur kishilar xayoti, o'sha davrdagi ijtimoiy turmush, payg'ambarlar xayotiga oid, shuningdek jug'rofiy ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Saolibiy ma'rifatparvar shoxlar tarafdori bo'lgan, ularga atab asarlar yozgan. «Ajoyib ma'lumotlar»ning boshidayoq bayon qilingan fikrlar shundan dalolat beradiki, asar as-Sohib Abu-l-Qosim ismli vazirga atab bitilgan. Saolibiy as-Soxibning shaxsiy fazilatlariga ta'rif bergan: «U shunday kishiki, fazilat va ish boshqarish bilan o'tib ketganlar va endi keladiganlardan ustun turishi, Quyoshning

oydan va dengizning qatradan ustunligidir... Buyuk ismli Tangrimdan umidim shuki, u (as-Soxib)ning vazirlik kunlarini davom ettirib, shon-shuxrat va baxt bilan o'z panoxida asrasin, (uni) kuch-qudrat va kamolot bilan o'rab, olijanob fikr va oliy ximmat (ato etsin), ertaning saodati uchun bugun qayg'uradigan qilsin».

Asarda odob-axloq masalalari xam aks ettirilgan. Jumladan, Saolibiy odamlarni bir-birlarini ko'ra olmaslik, qopa niyatlilik kabi illatlardan xoli bo'lishga chaqirib, ajdodlarimizning «Hasaddan qoch!» deganlarini eslatib o'tadi va bu iblisning Odam atoga xasadi tufayli sodir bo'lgan, deb tushuntiradi.

Odoblilikda, notiqlikda Luqmoni- Xakimni ibrat tariqasida ko'rsatgan alloma, uning xikmatlari va pand-nasixatlari xaqida masallar to'qiganligini, uningdek xech kim puxta va qisqa so'zlamaganligini aytadi xamda uning «Ey, odam bolasi, kecha va kunduz sen uchun ishlayapti, sen xam ular uchun ishla», - degan so'zlarini keltiradi.

Mexmondo'stlik, qo'li ochiqlik - qadimdan e'zozlanib kelinayotgan insoniy xislatlar. Mexmon kutish madaniyatiga ayniqsa SHarq xalqarida aloxida e'tibor bilan qaraladi. Abu Mansur as-Saolibiy ushbu an'ana kelib chiqishini Baxrom Go'r shaxsi bilan bog'laydi va uning «mexmon» so'zini «uyning xojasi» ma'nosini anglatadi deganlarini eslatib o'tadi. So'ngra bu so'zlar mazmunini taxlil qilib, «mexmon ularning uyida ekan, ularning xojasidir»³⁰, - deb yozadi.

YUrt boshqarish san'ati, davlat ishlarini yuritish masalalari xam ma'muriy faoliyat bilan shug'ullangan Saolibiy uchun katta qiziqish o'yg'otgan. O'z asarida alloma bu soxaga xam e'tiborini qaratadi va amaldorlar, boshliqlar oddiy fuqarolardan ibratli fazilatlarini xamda xislatlari bilan ajralib turishlari lozim, deb xisoblaydi. SHu boisdan u Mug'ayra ibn SHu'ba ismli amir tomonidan aytilgan «Amir va raiyat orasida farq bo'lishi kerak, viloyatlari axli uni uzlariga amir deb sanasinlar», -degan suzlarini keltiradi.

Qadimdan kasb-xunar egallash xar bir insonning burchi deb xisoblab kelingan. Bu fazilatni qadrlagan Saolibiy oddiy fuqarodan tortib podshoxu amirlar xam ma'lum bir xunar egallagan bo'lishlari kerak deb xisoblaydi, ko'pchilik

³⁰ "Фан ва турмуш" журналы. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон).

mashxur kishilarning xunarlarini sanab o'tadi. Alloma «Ajoyib ma'lumotlar» asarida ismlar xaqida fikr yuritib, xorazmshox Ma'mun ibn Ma'mun nomini keltiradi va uning Sijistonda (xokim) bo'lgan o'g'li ismi Ma'mun ibn Ma'mun ibn Ma'mun ekanini ma'lum qiladi.

Abu Mansur as-Saolibiyning ijodi va shaxsiyatiga oid tarixchi ibn Xaliqqonning (1211-1282) quyidagi tavsifini keltirish o'rinli: «O'z vaqtida (as-Saolibiy) bilimlar daryosini kezdi, nazm va nasr bobida maxoratni o'zida mujassamlashtirdi, mualliflar gulchambari va davridagi qalamkashlar imomi edi, u o'zi bilan raqobatlashganlar ustidan xukmini o'tkazar-edi... Uning asarlari yaxshilarning eng yaxshisi,- barcha yulduzlarning eng porlog'i va ular ichida eng yuksagidir».

Darxaqiqat, Abu Mansur as-Saolibiy yirik adabiyotshunos, axloqshunos olim bo'lgan. Uning o'ziga nisbatan talabchanligi, tirishqoqligi xaqida allomaning quyidagi aytganlari *aniq* tasavvur xosil qilish imkonini beradi: «Bu(kitob)ni yaratdim va buzdim, uzaytirdim va qisqartirdim, o'chirdim, YAna joyiga qo'ydim, ko'chirib yozdim, yana o'chirib tashladim»³¹.

Fikrimizcha, Saolibiyning ijodiy faoliyati, axloqiy merosi yosh avlod tomonidan chuqur o'rganishga loyiq. Zero, Xorazm Ma'mun akademiyasining yirik allomasi bo'lgan ushbu shoirning bir qancha asarlari xozirgacha saqlanib qolgan. Ularni tarjima qilib, elga tanitishda professor I.Abdullaevning xissalari beqiyosdir. Bu tarjimalarni keng o'quvchilar ommasiga, ayniqsa talabalar e'tiboriga xavola qilish olim ijodidagi boshqa qirralarning xam yanada *chuqurroq* yoritilishga xizmat qiladi.

Abul Hakim al-Kosiy — asosan kimyo fani bilan shug'ullangan akademiya allomasi. Al-Kosiyning «San'atning moxiyati va shug'ullanuvchilarga yordam» asari ma'lum. Bu kitobda bayon etilgan kimyoviy jarayonlar Evropadagi XIII-XIV asrlardagi ilmiy tadqiqotlar darajasiga to'g'ri kelishi, 1905 yilda ingliz tiliga tarjima qilinishi uning bilimlari naqadar yuksakligidan dalolat beradi.

³¹ "Фан ва турмуш" журнаלי. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон).

YUqori zikr etilgan olimlar o'z asarlari bilan Xorazm Ma'mun akademiyasidagi ilmlar rivojiga ulkan xicca qo'shdilar va shu bilan islom mamlakatlaridagi ilmlarning keyingi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdilar.

Ma'mun ibn Ma'mun saroyidagi olimlar ishtirokida ilmiy anjumanlar, munozaralar o'tkazib turilgan. Ular turli soxalar bo'yicha xilma-xil mavzularga doir ilg'or fikr-muloxazalar bildirganlar, o'zaro baxslashganlar. Bunday anjumanlar g'oliblariga qimmatbaho sovg'alar xadya qilinib, muruvvat ko'rsatilgan. Allomalarga Abu Rayxon Beruniy raxnomalik qilgan bo'lib, xorazmshox vaziri as-Saxriy xam olimlar uchun xaqiqiy ijodiy muxit yaratish borasida o'z xizmatlarini ayamagan. Olimlar Gurganchning boy kutubxonasida mutolaa qilganlar, doimiy ravishda o'z shogirdlari bilan mashg'ulotlar o'tkazib borganlar. Ular Gurganch kurkiga kurk qo'shib, Movarounnaxr va Xurosonda uning nufuzini yanada oshishiga baxoli qudrat xizmat qilganlar.

2.2. Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanishi va bugungi faoliyati.

SHonli tariximizni, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni chuqur va atroflicha o'rganish bugungi mustaqil xayotimizning ma'no va mohiyatini, qadru - qimmatini anglab etishga xizmat qiladi. O'tmish ibratlari xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'tmishning ilg'or tajribalari mustaqil O'zbekistonning kelajak taraqqiyotini oqilona belgilashga yordam beradi. 1997 yilda YUNESKO raxnomoligi ostida Xiva shaxrining 2500 yillik yubileyi tantanalari minbaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov nutq so'zlab shunday degan edi: "Bundan ming yil muqaddam odamzod tarixidagi ilk akademiyalardan bo'lmish Ma'mun akademiyasi Xorazm zaminida tashkil topgani bilan xar qancha faxrlansak arziydi, albatta. Uylaymanki, biz Ma'mun akademiyasini Xorazm zaminida qayta tashkil etsak, ko'p ulug' ish bo'lar edi".

Ushbu taklif asosida 1997 yil 11 noyabr kuni Prezidentimizning «Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish to'g'risida» deb nomlangan Farmoni e'lon qilindi. Farmonning maqsadi va mohiyati quyidagicha ifodalangan: "O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, uning jahon xamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlash, mintaqalarda fanni yanada rivojlantirish xamda iste'dodli va fidoyi olimlarni xar tomonlama qo'llab-quvvatlash, yuqori intellektual muxit yaratishdagi milliy an'analarini rivojlantirish, qadimda fan, ma'rifat va madaniyat olamining markazi xisoblangan odamzod tarixidagi ilk akademiyalardan bo'lmish Xorazm Ma'mun Akademiyasini qaytadan tashkil etish maqsadida:

1. Xorazm Ma'mun Akademiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining mintaqaviy bo'limi Xiva shaxrida tashkil etilsin".

Ushbu Farmon asosida o'sha vaqtda qayta tiklanishi mo'ljallangan Ma'mun Akademiyasi zimmasiga bir qator muxim vazifalar xam yuklandi. Jumladan,

— Ilm-fan soxasidagi Qadimgi ulug' milliy meros asoslarida yuqori intellektual muxitni yaratishdagi boy an'analarini tiklash va rivojlantirish, yosh iste'dodli

olimlarni izlab topish, ularni Akademiya faoliyatiga jalb etish va ilmiy ijodlarining samaradorligini yuksaltirish;

— Qadimgi milliy ilm-fan soxasidagi boy merosni xar tomonlama o'rganish va taxlil qilish, tarix, arxeologiya, falsafa, til va adabiyot, biologiya va biotexnologiya soxalarida fundamental izlanishlarni olib borish, zamonaviy ilmiy maktablar yaratish va fan yutuqlarini amaliyotga tadbiq etish;

— Mintaqada ilm-fan bilan bog'liq barcha ishlarni zamon talablari darajasida muvofiqlashtirish;

— Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;

— Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni amalga oshirishda faol ishtirok etish, uzluksiz ta'lim tizimi va fan o'rtasidagi uzviy, o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish, akademik litseylarda ilmiy pedagogik faoliyatni yuqori saviyada olib borish;

— Xalqaro ilmiy xamkorlikni rivojlantirish.

— Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibida tarix, arxeologiya, falsafa, til va adabiyot, biologiya yunalishlari bo'yicha ilmiy bo'linmalarni tashkil etsin, ikki xafta muddatda Xorazm Ma'mun Akademiyasining tuzilmasi va ustavini tasdiqlasin;

— Bir oy muddatda Xorazm Ma'mun Akademiyasining asosiy ilmiy yunalishlar xamda uning faoliyati bilan *bog'liq* sarf-xarajatlarning xisobini tayyorlasin;

2. 1998 yilning birinchi choragida o'z Ustaviga muvofiq, ustivor ilmiy yo'nalishlar soxasida samarali ishlayotgan olimlardan Xorazm Ma'mun Akademiyasi tarkibiga saylov o'tkazsin.

3. Xorazm Ma'mun Akademiyasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining xaqiqiy a'zolari (akademiklar) ikki nafarga ko'paytirilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (J.Sayfiddinov) Xorazm Ma'mun Akademiyasi ilmiy izlanishlar va ilmiy-tashkiliy faoliyatni olib borishi uchun

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tomonidan tayyorlangan sarf-xarajatlar xisobiga muvofiq byudjetdan mablag' ajratsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi (P.Xabibullaev) 1998 va keyingi yillarda Xorazm Ma'mun Akademiyasining ilmiy izlanishlar mavzularini Davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari tarkibida rejalashtirsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi xamda Xorazm viloyati xokimligi bilan birgalikda Xorazm Ma'mun Akademiyasi va uning bo'linmalariga iste'dodli yosh olimlar va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni ta'minlasinlar.

7. Xorazm viloyat xjimgligiga (I.YUsupov) bir oy muddatda Xorazm Ma'mun Akademiyasi uchun ma'muriy bino ajratish, uni ta'mirlash, transport, aloqa va boshqa zarur jixozlar xamda viloyatga taklif etilgan ilmiy xodimlarni uy-joy bilan ta'minlash yuklatilsin.

8. Ushbu Farmonning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi zimmasiga yuklansin.³²

Ushbu Farmon ijrosi yuzasidan 1997 yil 11 noyabrdan boshlab bir oy ichida Xorazm Ma'mun Akademiyasi tashkil topdi. Akademiya tarkibida bir qancha ilmiy yo'nalishlar bo'yicha bo'limlar tashkil etildi. "Arxeologiya, tarix va falsafa", "Til va adabiyot", "Biologiya muammolari" kabi bo'limlar shular jumlasidandir. Akademiya faoliyatining dastlabki yillarida biologiya yunalishida maxalliy qishloq xo'jalik xom-ashyosi asosida vitaminli omuxta em-xashak tayyorlash texnologiyasini yaratish va takomillashtirish ustida jiddiy ishlar qilindi. Bu yo'nalishda Xorazm mintaqasidagi o'simliklar dunyosini o'rganish, tuproq va iqlimning noqulay sharoitlarida o'simliklarni moslashtirish xamda turlarini caqlash va ko'paytirish ustida olib borilgan ishlar aloxida diqqatga sazovordir. Maxsus ilmiy loyixa asosida biolog olimlar amarant o'simligining bir necha turlarini Xorazm sharoitida o'stirish, xosildoligining yuqori darajasini ta'minlash,

³² Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

o'simlikning ko'k massasini qayta ishlash usullari ustida izchil tajriba sinov ishlarini olib bordilar. SHu bilan birga Ma'mun Akademiyasi biolog olimlari don o'simliklaridan makkajuxorining uch xil navini, tariqning ikki xil navini Xorazm Ma'mun Akademiyasi tajriba bazasida ekib, ular ustida bioekologik maxsus tajribalar olib bordilar.

Mintaqadagi biologik resurslardan xamda o'zlashtirilgan yangi o'simlik va don maxsulotlaridan chorvachilik soxasida, ayniqsa yirik shoxli chorva xamda parrandalar maxsuldorligini oshirishga qaratilgan tajribalar voxadagi ekosistemaning noqulay sharoitida muxim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu muammoni xal qilishda chorva ozuqasiga bo'lgan talabni noqulay iqlim va ekologik sharoitda zarur darajada tutmoq jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Masalani samarali xal qilishda *oqsil* moddalariga boy bo'lgan amarant o'simligi tabiiy sharoitga yuqori darajada mos ekanligini ko'rsatdi. Bu o'simlikni madaniy ekinlar qatoriga kiritish ozuqa ishlab chiqarish xajmini ko'paytirishga, ozuqa tarkibidagi proteinni boshqa moddalar bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, tarkibida oqsil, aminokislotalar, vitaminlar, makro va mikro elementlarga boy bo'lgan amarant mintaqadagi asosiy an'anaviy ozuqabop o'simliklardan qolishmaydi. Masalan, amarantning yashil massasi gektariga bir o'rimda gektaridan qulay sharoitlarda 800-100 sentnergacha xosil beradi. Bu esa gektaridan 90-130 sentner sof ozuqa birligi va 2 tonnagacha protein olishga imkon beradi. Bir mavsumda uch o'rim xosil yig'ishtirish salkam 2000 sentnergacha yashil ozuqabop massa beradi.³³

Amarantning quritilgan massasida caqlash va noqulay mavsumlar uchun o't uni tayyorlash bo'yicha ishlab chiqarish texnologik sxemasi joriy qilish uchun tavsiya qilindi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasida tuproqshunoslik masalalari bo'yicha mintaqaviy muammolar ustida ishlar olib borilmoqda. Xususan, Bog'ot va Xiva

³³ «Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006.

tumanlaridagi xo‘jaliklarda olib borilgan tuproqshunoslik tadqiqotlari bir qator ilmiy va amaliy natijalar berdi. Jumladan:

- Quyi Amudaryo etaklarida Xorazm voxasining tuproq qoplami, asosan daryo yotqiziqlaridan iboratligi, sug‘orma dexqonchilik natijasida turli xil qalinlikda xosil bo‘lgan agroirrigatsion -qatlam xisobiga bir-biridan farq qiluvchi turli xil mexanik tarkibli typpoqlap aniqlandi va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- Sug‘orma dexqonchilik natijasida xosil bo‘lgan agroirrigatsion qatlam kanal va vaqtinchalik ariqlarning oxirgi qismi ko‘l qirg‘oqlariga bir necha yillar davomida katta miqdorda oqar suvning kelib tushishi sababli xosil bo‘lgan agroirrigatsion qatlamdan nisbatan fizik loyning miqdori kam, chirindi qatlami qalin, suv o‘tkazish qobiliyati, strukturaviy holati yaxshiligi aniqlandi;
- Dexqonchilik madaniyatiga bog‘liq ravishda agroirrigatsion qatlam xosil bo‘lish jarayoni tezlanishi natijasida xosil bo‘lgan tuproqlarning meliorativ xolati, tabiiy sharoitda xosil bo‘lgan agroirrigatsion qatlamga nisbatan yaxshi bo‘lishi kuzatildi;
- Viloyatdagi barcha tipdagi tuproqlarda ikkilamchi sho‘rlanish jarayoni sodir bo‘lmoqda. Bu jarayonning tez yoki sust kechishi er osti suvlarining joylashish satxiga va ularning sho‘rlanish darajasiga borliqligi aniqlandi;
- Mintaqada sug‘oriladigan erlarning tuproq qatlami va qumli qatlam suvlari satxi, mineralizatsiyasi bir-biridan farq qiladi;
- Ikkilamchi sho‘rlanish xisobiga xosil bo‘ladigan tuzlarning er yuzasidan chuqurligi tuproq qatlamidagi suv satxiga bog‘liq bo‘lib, undan 40-60 sm joylashishi aniqlandi.

Olingan ma’lumotlar asosida irrigatsion tuproqlarning sho‘rlanish qonuniyatlari aniqlanib, mintaqada qishloq xo‘jaligi ekinlari xosildorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Xorazm mintaqasining tuproq va iqlim sharoiti taqazosi bilan qishloq xo‘jaligi ekinlarining istiqbolli navlarini o‘rganish muammosi Akademiyaning eng dolzarb yunalishlari qatorida turibdi. O‘tkazilgan tajribalar, fenologik kuzatuvlar va laboratoriya taxlillari asosida Xorazm voxasining tuproq va iqlim sharoitlarida

yaxshi o'sib, yuqori sifatli xosil beradigan o'simliklarini optimal tanlash seleksiyasini yanada yaxshilash, yangi ekin turlarini sharoitga moslashtirib ekishni joriy qilish kabi qator masalalar bir tomondan axolini oziq-ovqat bilan ta'minlash va chorvani oqsilga boy ozuqa bilan ta'minlash masalalariga bevosita bog'liqdir. Bu yo'nalishda tuproq unumdorligini biologik vositalar yordamida oshirishni ko'zda tutib, dukkakli don ekinlarini ko'paytirish ustida tajribalar muxim natijalar bermoqda. Bu soxada soya o'simligining bir necha navlari, ana'anaviy loviyaning maxalliy navini, no'xatning tashqaridan keltirilgan va maxalliy navlarini ekib tajriba qilish yaxshi natijalar bermoqda. Ularning vegetatsiya jarayonlarini yuksak texnologiya bilan ta'minlash masalasi xam tajribalarning asosiy maqsadi bo'lmoqda.

Axolini servitamin va biologik faol moddalarga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida pomidorning Orko va Inkas navlarini, bolgar qalampirining, bodringning Feniks va boshqa navlarini, baqlajonning Evropadan keltirilgan navlarini, sabzining chetdan kelgan va maxalliy Mirzoy navlarini keng plantatsiyalar asosida ekib yuqori xosil undirish ilmiy dastur asosida yo'lga qo'yildi.

Poliz ekinlaridan tarvuzning Ledi, Red komet va Kristi navlari, qovoqning Ispan-77 navi tavsiya qilindi. Moyli o'simliklardan kunjutning Isroildan, araxisning AQSH va Koreyadan keltirilgan navlari keng maydonlarga ekishga tavsiya qilindi. Serqirra o'simlik-krotalyariya poyasi chorva uchun to'yimli ozuqa, uzoq, muddat davomida gullagani bois asalarichilik uchun, siderat o'g'it sifatida esa dexqonchilikda katta ahamiyatga ega. Poliz ekinlaridan Xorazm qovun navlarini zararkunandalardan asrash masalasi aloxida diqqat markazida turibdi. Ayniqsa, qovun pashshasiga qarshi kurash vositalari xaqida ish olib borilmoqda.³⁴

Xorazm xo'jaligining etakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikni rivojlantirishda istiqbolli g'o'za navlarini etishtirish muxim ahamiyatga ega. SHu bois, g'o'zaning istiqbolli 4 navining o'sishi, rivojlanishi va xosildorligi o'rganildi.

³⁴ Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

Xorazm vohasida termit (chumoli)larga qarshi kurashish muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Illy munosabat bilan Ma'mun Akademiyasida termitlarning ekologiyasi va ko'payishi, biologik xususiyatlari, yashash tarzi kabi masalalarni o'rganish yalpi ma'noda xo'jalikni ximoya qilish Xorazm florasini asrash, inshootlarni termitlar emirishidan saqlash kabi muxim vazifalar shu munosabat bilan yuzaga kelmoqda.

Xorazm voxasining - Xiva, Xazorasp, YAngiariq, Urganch, SHovot, Qo'shko'pir tumanlarida xamda Xiva va Xazorasp shaxarlari tarixiy yodgorliklari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi «Ozod» jamoa xo'jaligi xududida, Ellikqala tumani Bo'ston shahri yaqinida joylashgan Qabatqal'a xarobalarida, uning atrofida uy-joy inshootlarida xamda Ayazqala qo'li, Aqcha qo'li atrofida termitlar joylashgan joylarda ham tadqiqotlar o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra, termitlarning Turkiston va Katta Kaspiy orti turlari turar-joy, ma'muriy va jamoat binolari xamda tarixiy yodgorliklarga katta zarar etkazyapti. Masalan, Xiva shaxrining Mevaston mahallasidagi 221 xonadonning yarmi termitlardan jiddiy zarar ko'rgan. YUNESKO x.imoyasidagi Ichonqal'a tarixiy yodgorliklari kompleksidagi obidadan 35 tasi termitlardan turli darajada zararlanganligi aniqlandi. Termitlarning turar-joy binolarida, tarixiy obidalarda bu darajada zarar keltirishi, tarqalishi o'rganilganda, eski qabristonlarning buzilib, o'rniga joylarning qurilishi, termitlar tarqalgan qirlarni va qumlarni o'zlashtirib, turar joylarning bunyod qilinishi ushbu xududlarda termitlarning tarqalishiga sabab bo'lgan, ya'ni eski qabristonlar, tarixiy qal'alar, qumlik va qirlar termitlarning asosiy uchog'i ekanligi aniqlandi.

Termitlar jamoa bo'lib yashaganda hashoratlar xisoblanadi. Oilada individlarning o'z vazifasi mavjud. Masalan, ishchilar uyani qurish va tozalash, oziq g'amlash, lichinka va shoh xamda malikalarni oziqlantirish kabi vazifalarni, navkar esa uyani dushmandan ximoya qilish vazifasini, erkak va urg'ochisi ko'payish vazifasini bajaradi. Ularning yashash muddatlari xam turlicha bo'ladi.

Xorazm vohasi tuproqlarida termitlar yil fasllariga qarab tuproq haroratining o'zgarishiga bog'liq xolda xar xil chuqurlikda tarqalgan. YOzning jazirama issiq

kunlari termitlar tuproqning 40-45 sm chuqurligigacha, kuz oylarida tuproqning ancha yuqori qatlamlariga ko'tariladi. Qish oylarida esa tuproqning 250-280 sm chuqurligigacha termitlar uchramasdan, ular tuproqning yanada chuqur qatlamlariga yoki xonadonlarga tarqalishi aniqlandi. Uy-joy binolari va inshootlarga zarar etkazuvchi Turkiston termitiga qarshi kurash choralari bo'yicha uslubiy qo'llanma nashr qilindi.

2000-2002 yillar davomida Xorazm Ma'mun Akademiyasida «Xorazmning turli tuproq-iqlim sharoitlarida unumdorlikni oshirish xamda g'o'za, beda, g'alla majmuidagi ziroatlardan yuqori xosil olishni ta'minlovchi ziroatlarni almashlab ekish tizimlarini takomillashtirish va joriy qilish» mavzusida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan g'o'zaning 14 navi, bug'doyning 2 navi va maxalliy beda tajriba maydonlariga ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari, tuproq unumdorligini va erning meliorativ xolatini yaxshilashdagi ta'sirini, shuningdek, g'o'zaning yangi istiqbolli navlarining xosildorligini oshirishdagi ahamiyati o'rganildi.

Ilmiy asoslangan dexqonchilik tizimining muxim shartlaridan biri almashlab ekishning muayyan tuproq-iqlim sharoitiga mos samarali tizimini yaratishdir. Buning uchun asosiy ekinlar g'o'za va bug'doyning xosildorligini oshirish evaziga beda ekiladigan maydonlar salmog'ini ko'paytirish talab qilinadi.

Shu boisdan, Xorazmning turli tuproq-iqlimi sharoitlarida unumdorlikni oshirish hamda g'o'za-beda-g'alla majmuidagi ziroatlardan yuqori xosil olishni ta'minlovchi ekinlarni almashlab ekish tizimlarini takomillashtirish bo'yicha 2000-2002 yillarda izlanishlar olib borildi va jiddiy amaliy natijalarga erishildi. Masalan, 9 dalali almashlab ekish tizimi bo'yicha g'o'za-beda-g'alla ekish sxemalari ishlab chiqildi va xo'jaliklarga tavsiya qilindi; viloyat sharoitida serhosil va ertapishar Xorazm 127 paxta navini ekish sxemasi bo'yicha ham tajribalar o'tkazilib, olingan natijalar asosida mintaqaga mos maqbul ekish sxemalari aniqlanib, tavsiyalar berildi; tajriba dalalarida qishloq xo'jaligi ekinlari-g'o'za, g'alla va beda o'ziga xos agrotexnika asosida o'stirilib, ekish va agrotexnik tadbirlarni o'tkazish muddatlari, o'g'itlar miqdori, suv rejimining maqbul me'yorlari bo'yicha tavsiyalar ishlab

chiqildi; tajriba dalalariga g'ozaning 14 navi ekilib, mintaqa tuproq-iqlim sharoitiga mos o'rta tolali g'oz navlarini ekish va agrotexnikasi bo'yicha tavsiya berildi; Xorazm 127 o'rta tolali g'oz navini qo'sh qatorlab ekish va undagi maqbul ko'chat qalinligi bo'yicha xo'jaliklarga tavsiyalar berildi. Tajribalarda xomiladorlik 5,8-7,4 sentnerga oshganligi aniqlandi.

Olingan natijalar asosida tayyorlangan tavsiyalarni ishlab chiqishga joriy qilish natijasida samaradorlikni va xosildorlikni oshirish, Xorazm viloyati tuproqlarning unumdorligini oshirish, yangi istiqbolli g'oz va g'alla ekinlari navlarini tanlab olish imkoniyati yaratmoqda.

Mazkur yillarda yana bir mavzu: «Xorazm vohasi tuproq-iqlim sharoitlarda istiqbolli, serxosil, zararkunanda va kasalliklarga chidamli ko'niktirilgan o'simliklar navlarini o'rganish» muammolari bo'yicha mintaqada tashqaridan keltirilgan 29 turga oid dukkakli don ekinlari, poliz, sabzavot va texnik ekinlarning 136 xil navi Akademiya tajriba dalalarida ekilib, ularning vegetatsiyasi ustida ishlar olib borildi va xosildorlik darajasi o'rganildi. SHular qatorida Xorazm vohasida tuproq iqlim sharoitining noqulayligini e'tiborga olib, kungaboqarning 5 navi, moshning 2 navi, makkajuxorining 2 navi, soyaning 2 navi, g'ozaning 4 navi kabilarni xo'jalik samaradorligi talablari asosida takomillashtirish tajribalaridan o'tkazildi. Afrika qo'noq o'tini Xorazmga moslashtirish bo'yicha qilingan ishlar yaxshi natijalar berdi va bu o'simlik turli mintaqada chorva ozuqasi uchun tavsiya etildi. Axolini vitaminli va biologik faol moddalarga bo'lgan extiyojini qoplash uchun kunjutning 2 navi, bodringning 2 navi, qovoqning 2 navi, sholg'omning 2 navi, qulupnayning 4 navi, sabzining 2 navini keng maydonlarda ekish uchun tavsiya qilindi.³⁵

Sanoat ekinlaridan tola beruvchi kanopning 2 navi xam mintaqada sinovdan yaxshi o'tdi. Tadqiqotlar natijasida maxalliy tuproq-iqlim sharoitlariga mos, serxosil, ertapishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli istiqbolli o'simliklar

³⁵ «Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006.

navlarining bioekologik xususiyatlari va xosildorligini xamda boshqa foydali xo‘jalik belgilariga ko‘ra 1 turga mansub o‘simliklarning 38 navi tanlab olindi.

CHorva mollarini don, ko‘k massa va silos bilan ta‘minlovchi asosiy ekin - makkajuxorining yangi serxosil navlari va gibridlarini tanlash, Xorazm viloyati tumanlarida gibridizatsiya uchastkalarini tashkil qilish, urug‘chilik tizimini barpo qilish, «Xorazm sharoitida chorvachilikni mu‘tadil ozuqaviy bazasini yaratish va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida sug‘oriladigan erlarda makkajuxori va boshqa ozuqaviy ekinlarini ekib samarali foydalanish» mavzusida olib borilgan tadqiqot ishlarining asosiy maqsadidir.

Makkajo‘xorining O‘zbekiston-100 navi viloyat sharoitida o‘rtacha 30 s ga don va 460 s ga ko‘k poya berdi, Dias (Gretsiya) navi o‘rtacha 53 s ga don va 300 s ga ko‘k poya, O‘zbekiston pakanasi navi esa 45 s ga don va 250 s ga ko‘k poya, 601-duragayi 52 s ga don va 300 s ga ko‘k poya xosili berishi aniqlandi. Makkajo‘xorining yangi navlari va duragaylarini asosiy va takroriy ekin sifatida etishtirishning viloyat sharoitlariga mos agrotexnikasi yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilindi va viloyatda makkajo‘xori urug‘chiligi tizimiga asos solindi.

Ozuqaviy oraliq ekinlar-tritikale gektaridan 40 sentner don va 175 sentner poya xosili, javdar esa 47 sentner don va 225 sentner ko‘k poya xosil berdi. Kuzgi raps, surepitsa va perko viloyat sharoitida cheklangan maydonlarda ekilib urug‘lari etishtirildi va bioekologik xususiyatlari o‘rganildi.

«Quyí Amudaryo mintaqasi tuproqlarining suv-tuz rejimini yaxshilaydigan tizimlarining ish rejimini boshqarish usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi ilmiy loyixa mintaqada chigitning unib chiqish fazasida sizot suvlarini maqbul satxlarda ushlab turish va uni boshqarish texnologiyasini yaratish, sug‘orma suvlarini tejash, tuproqlarning suv-tuz rejimini tartibga solish, tuproqning meliorativ xolatini yaxshilash evaziga unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Mintaqada zahkash-zovurlar majmuining rejimini yaxshilash va uni boshqarish evaziga tuproqlarning suv-tuz rejimlarini tartibga solish maqsadida Xiva tumani «O‘zbekiston» va «Feruz» nomli shirkat xo‘jaliklaridagi sizot suvining mavsumlar bo‘yicha o‘zgarishi va uning tarkibi o‘rganildi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida viloyatda chigitning unib chiqish fazasida, ya'ni birinchi sug'orish muddatigacha maqbul tuproq namligini yaratishda zahkash-zovur majmuini boshqarish texnologiyasini ishlab chiqildi. Tuproqlarning meliorativ xolatini yaxshilash evaziga tuproqlar unumdorligini oshirish natijasida qishloq xo'jalik ekinlari xosildorligini 15%gacha ko'tarishga erishildi. Suv tanqisligi davrlarida zahkash-zovur suvlarini oqova daryo suvlari bilan birga aralashtirilib ishlatish xisobiga tabiiy usullarni 20%gacha (yillik me'yorning) tejash imkoniyati yaratildi.

Suv tanqisligi sharoitida erlarning sho'rini yuvish, chigit urug'ini optimal muddatlarda undirib olish, ekinlarni mavsumiy sug'orishlarda zaxkash suvlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Xorazm viloyatida 2001 yilda olingan yillik iqtisodiy samara 1 milliard 775,9 million so'mni tashkil qiladi.³⁶

2003-2006 yillarda yuqorida keltirilgan ilmiy yo'nalishlar yanada takomillashtirilib mintaqada yangi istiqbolli qishloq xo'jaligi o'simliklarining turli xillari ekilib, ularning o'sishi va xosildorligi masalalarini o'rganish davom etdi. O'simliklarning bioekologik xususiyatlari, ayrim fiziologik jarayonlarning ko'rsatkichlari meva va urug'larining biokimyoviy tarkibi va foydali ko'effitsientlari tadqiq etildi. SHuningdek, sug'oriladigan maydonlardan unumli foydalanish maqsadida kuzgi boshoqli don ekinlaridan bo'shagan erlariga takroriy ekinlar ekib, bir yilda ekin maydonidan ikki marta xosil olish, o'rganilgan dukkakli ekinlarning tuproq unumdorligini oshirish imkoniyatlari xam tadqiq qilindi.

Xozirgi kunda Xorazm Ma'mun Akademiyasi eksperimental bazasi dalalariga turli mintaqalardan keltirilgan bamiyaning 14 turi, amarantning 3 turi, daykonning 2 navi, krotalyariya, nug, topinambur, kungaboqarning 5 navi, raps va surepitsaning 2 turi, Makkajo'xorining 3 navi va 2 gibbridi, g'o'zaning istiqboli 10 navi, sholining 3 navi, xashaki nugning 2 navi, qashqar beda va boshqa o'simliklar ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari kasallik va zararkunandalarga xamda

³⁶ Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.

noqulay omillarga chidamliligi o'rganildi va etishtirishning agrotexnologiyalari takomillishtirildi.

Olingan natijalar asosida tayyorlangan tavsiyalarni qishloq xo'jaligiga va xalq xo'jaligining boshqa soxalariga joriy qilish oqibatida o'simliklar maxsulotlarining xajmini oshirish va sifatini yaxshilash, tuproqlarning unumdorligini oshirish, istiqboli yangi o'simliklarni ko'niktirish, mintaqaning ekologik xolatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

«Xorazm sharoitida chorvachilikning mo'tadil ozuqaviy bazasini yaratish va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida sug'oriladigan erlarda makkajuxori va boshqa ozuqaviy ekinlar ekib samarali foydalanish» mavzusi bo'yicha mazkur yillarda - ushbu ekinlarning mintaqaviy agrotexnikasi - erni tayyorlash, ekish muddatlari va me'yorlarini aniqlash, suv sarfi, mineral va maxalliy o'g'itlarning turli miqdorini belgilash bo'yi tadqiqotlar olib borildi. Natijada, xozirgi kunda makkajo'xorining uch navi va ikki gibridi, oq jo'xori, maxalliy juxori, qashqarbeda, Kolumb o'ti, Afrika qo'nog'i, raps va surepitsaning ikki turlari, sudan o'ti, amarant, tritikale ekilib, ularning bioekologik xususiyatlari xamda ozuqaviy ekinlar etishtirishning mintaqaviy xususiyatlari o'rganildi. Natijada quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Asosiy ekinlarning vegetatsiyasini sentyabr oyida tugatish, oyning ikkinchi yarmida kuzgi ekinlar ekilib bo'lishi kerak.
- Erni ekishga sifatli tayyorlash, o'z muddatida ekish xamda organik va menereal o'g'itlarni qo'llash-ozuqaviy ekinlardan yuqori xosil olishning garovidir.
- Ekinlarni o'z muddatlarida sifatli parvarishlash-menereal o'g'itlar berish, erni yumshatish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash zarur. Asosiy ekinlar uchun organik o'g'itlarni, takroriy ekinlar uchun oson o'zlashtiriladigan menereal o'g'itlarni qo'llashning samarasi yuqori bo'ladi.
- YUqori va sifatli xosil olish uchun ekiladigan o'simliklarning biologik xususiyatlari va viloyatning tuproq-iqlim sharoitlari to'g'ri xisobga olinishi shartdir.

- Sinalgan ozuqaviy ekinlarni etishtirish texnologiyasining mintaqaviy xususiyatlari aniqlandi. Sug'orma erlardan samarali foydalanish, kech kuz va erta baxorda chorva mollarini ko'k ozuqa bilan ta'minlash, tuproq unumdorligini oshirishga imkon beradigan ozuqaviy ekinlarni almashlab ekishning tizimi tajribalarida sinab ko'rildi.
- Ekin maydonlarida bir yilda ikki marta xosil etishtirilganda baxorgi ekilganiga nisbatan 30-40 foizdan ortiq yashil massa, don va ozuqa birligi olinadi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasida mintaqaviy ekologik sharoitni xisobga olgan xolda, axoli salomatligini saqlash va meditsina xizmati oldida turgan muxim vazifalarni belgilash bo'yicha "Xorazm voxasining ekologik xolati va uning axoli salomatligiga ta'siri» mavzusida ilmiy dastur ishlab chiqilgan va tadqiqot ishlari davom etmoqda. Ushbu tadqiqot yo'nalishi mintaqaning Xiva, SHovot, Xazorasp tumanlari bo'yicha dala kuzatuvlari va joriy nazorat asosida ilmiy va amaliy masalalar o'rganilmoqda. Buning uchun joylardagi tibbiyot statistikasi muassasalarning tibbiyot axborotlari istiqbol rejalarini belgilash byurolarining statistik materiallari, viloyat sanitariya-epidemiologiya stansiyasi va uning tumanlardagi bo'limlari, viloyat tabiatini muxofaza qilish qo'mitasi, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi va uning viloyat bo'limi viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi va ularning tumanlardagi bo'limlari, viloyat «qishloq xo'jalik kimyo» xududiy birlashmasi, viloyat er resurslari boshqarma va boshqalar kompleks o'rganilmoqda.

Orol dengizining qurishi oqibatida Janubiy Orol mintaqasi, xususan, Xorazm viloyatida yuzaga kelgan ekologik holat ko'lami chuqur taxlil qilindi.

Viloyatdagi xududiy ekologik muammo omillari va ularga bog'liq tarzda xudud axolisi o'rtasida yuzaga kelayotgan turli kasallik o'rtasida o'zaro korrelyasion bog'liqlik darajalari o'rganildi.

Xorazm vohasining ekologik xolati va uning axoli salomatligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar respublikamizning boshqa xududlari, xususan Farg'ona va Toshkent viloyatlaridagi ko'rsatkichlarga qiyosiy taxlil qilinmoqda.

Ma'mun Akademiyasida aniq fanlar doirasida xam jiddiy tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, akademik A.S.Sa'dullaev rahbarligida "Potensiallar nazariyasi va noxiziqli tenglamalar" mavzusida nazariy ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ilmiy tadqiqotning maqsadi matematik chegaraviy to'plamlarning Potensiallar xossalari to'liq o'rganish va fizik masalalarni echishda uchraydigan noxiziqli evolyusion tenglamalarni echish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir.

Ilmiy loyixa bo'yicha matematik chegaraviy to'plamlarning kompleks potensiallari, Bogolyubov teoremlari, tez kamayuvchi, zinasimon, davriy va deyarli davriy potensialli operatorlar uchun teskari masalalar o'rganildi. Olingan ilmiy natijalar matematik fizikaning bir qator noxiziqli evolyusion tenglamalarini echishda qo'llanilmoqda. CHegaraviy to'plamlarning potensiallar xossalari to'liq o'rgangandan so'ng, bu potensiallar yordamida chegara bo'lagini aniqlangan funksiyalarni soha ichiga davom ettirish xaqidagi muammoni hamda ko'pchilik fizik masalalarni echishda uchraydigan manbaga ega bo'lgan noxiziqli evolyusion tenglamalarni echish imkoniyatlarini yaratadi.

Ushbu tadqiqotlar keng ma'noda xalqapo ilmiy dasturlar doirasida olib borilmoqda. Moskva, Volgograd, Kiev, Xarkov, Novosibirsk Davlat universitetlari va CHexoslovakiya, SHvetsiyaning matematika sohasidagi ilmiy markazlari bilan yaqindan ilmiy-amaliy aloqalar yo'lga qo'yilgan.

Xorazm mintaqasida ekologik sharoitning murakkablashuvi Orol dengizining qurib borayotgani, tabiiy suv rejimiga antropogen ta'sirining kuchayishi natijasida Amudaryo suvining kamayishi er osti Sizot suvlarining ko'tarilishi, tuproqning sho'rlanish darajasi ortishi va boshqa bir qator omillar tarixiy me'moriy obidalarining caqlanish ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. SHuni e'tiborga olib, Ma'mun Akademiyasida "Xorazm me'moriy obidalarining fizik va biologik ta'sirlardan ximoya qilishning ilmiy asoslangan uslublarini ishlab chiqish» mavzusi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu mavzuning muximligi shundaki, jaxon axamiyatiga ega bo'lgan qo'riqxonalar deb tan olingan Xiva

shaxrining obidalarini kelajak avlodlarga etkazib berish bugungi avlodning xam qarzi, xam farzidir.

Xorazm Ma'mun Akademiyasida ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha muxim tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Xorazm mintaqasida sivilizatsion jarayonlar va davlatchilik tarixi masalalari bo'yicha davlat granti asosida ish olib borilmoqda. Bu mavzuga O'zbekistan va Qoraqalpog'istonning yirik arxeolog va tarixchilari jalb etilgan. Jumladan M.Isxoqov, V.YAgoden, S.Qudratov, A.Abdurasulov kabi olimlar bu mavzu bo'yicha samarali natijalarga erishmoqdalar. Ayni shu muammo doirasida Avestoshunoslik yo'nalishiga xam alohida e'tibor qaratilgan. M. Isxoqovning qadimiy o'zbek davlatchiligining ilk konseptual asoslari xaqida Avesta materiallari asosida chiqargan xulosalari katta nazariy ahamiyatga ega. V.YAgodenning chap qirg'oq Amudaryo mintaqasida sivilizatsion jarayonlar va davlatchilik masalalariga bag'ishlangan arxeologik tarixiy tadqiqotlari fundamental ilmiy xulosalarga asos bo'lmoqda.³⁷

Xorazm mintaqasi axolisining etno-madaniy tarixiy masalalari ham jiddiy tadqiqot yo'nalishini tashkil qilgan. Xususan, voxa axolisining urf-odat, udum irim-sirimlarining genetik asoslari va xozirgi xolati bo'yicha kuzatuvlar muxim sotsial antropologik xulosalar qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Xorazm qadim zamonlardan boshlab o'ziga xos tarixnavislik an'alariga egadir. SHu ma'noda Xorazm tarixnavisligining taraqqiyot dinamikasini o'rganish, mintaqada ayniqsa, turkiy tilli tarixnavislik maktabining vujudga kelishi va uning ilmiy merosini o'rganish aloxida nazariy va amaliy axamiyatga ega. Xorazm Ma'mun Akademiyasi tadqiqot yo'nalishlaridan biri filologik muammolar bilan bog'liq. Bu soxada Xorazmdagi til vaziyati masalasi shevashunoslik, adabiyotshunoslik soxalarida xali ko'p ishlar qilinishi lozim. Ma'naviyat takomili bilan bog'liq bo'lgan falsafiy, falsafiy-axloqiy yozma merosni o'rganish, tarixiy manbashunoslik soxalarida olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish muxim vazifalar qatorida turadi.

³⁷ «Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ўрта аср Шарқининг йирик илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006.

XULOSA

Istiqlol yillarida madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jabhalarda muhim ishlar amalga oshirildi. Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o'zbek milliy davlatchilik tarixi eng avvalo ma'naviyat-ma'rifatning jamiyat hayotida muhim o'rin egallaganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq mamlakatimiz rahbariyati tomonidan jamiyatimizning o'z mafkurasini yaratish, shu asnoda kishilarni milliy g'oyaga sadoqat ruhida tarbiyalash ustivor vazifaga aylandi. Milliy mafkuraning bosh ijodkori, va tashabbuskori bo'lgan davlatimiz rahbari bu borada talaygina ibratli fikrlarni bildirib o'tdi. Ushbu fikrlar keyingi davrlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar uchun dasturulamal vazifasini o'tadi.

O'zbekiston bugun islohotlarni izchil amalga oshirish yo'lidan bormoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "...Ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida tadrijiy yondashuvni, "Yangi uy qurmasdan turib, eskisini buzmag" degan hayotiy tamoyilga tayangan holda, islohotlarni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik"³⁸.

Shu bilan birga prezident tanlagan yo'limiz naqadar to'g'ri ekanligini bir necha bor ta'kidlab o'tdi: "...Biz bugun mana shunday buyuk maqsadlarni oldimizga qo'yar ekanmiz, chuqur anglab olishimiz zarurki, bunday orzu-intilish mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab olib borayotgan siyosatimizning mantiqiy va qonuniy davomi bo'lib, butun xalqimizdan tinimsiz mehnat va kuch-g'ayratni safarbar etishni talab qiladi"³⁹.

Mustaqillikni faqat iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga asoslanib, odamlar turmush sharoitini yaxshilash bilan ta'minlab bo'lmaydi. Jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishning iqtisodiy va siyosiy omillari singari zarur bo'lgan yana bir muhim asosi borki, usiz mustaqillikni mustahkamlab ham, barqarorligiga erishib ham bo'lmaydi. Mustaqillik iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda odamlar

³⁸ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.- Toshkent: O'zbekiston, 2009.-B.7.

³⁹ Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. //O'zbekiston ovozi.-2010.-1 sentyabr.

ongi va dunyoqarashida, odob-axloqi, imon-e`tiqodi, bilim-saviyasi va ruhiyatida, madaniyati va ma`naviyatida, ta`lim-tarbiyasida ham tub, asosli o`zgarishlar bo`lishini talab etadi. Bugungi kunda yurtimizda jamiyatimizning ma`naviy hayotining yuksaltirish, mustaqillikni mustahkamlashda ma`naviyatning rolini yanada oshirish, ma`naviyatni yuksaltirmasdan turib oldimizga qo`ygan maqsadlarga erisha olmasligimizni fuqarolarga tushuntirish asosiy vazifalardan bo`lib bormoqda. Bu- bejiz emas, albatta. Chunki kelajakda buyuk davlat egasi bo`ladigan komil insonni tarbiyalamasdan, ma`naviy, axloqiy barkamol qilmasdan turib olg`a tomon rivojlanish, mustaqillik muammolarini hal etish mumkin emas, bu-birinchidan. Ikkinchidan, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o`tish borasidagi murakkab vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish fuqarolarning ma`naviy-axloqiy kamoliga, imon-e`tiqodiga, g`oyaviy-siyosiy yetuklik darajasiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Yoshlar ongiga milliy g`oya mafkurani singdirish va ularga millatimiz tarixi, madaniyati haqida mukammal va puxta bilim berishda maktablar, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari alohida o`rin tutadi. Olimlarimiz maktab o`quvchilari, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari, oliy o`quv yurtlari talablariga mo`ljallangan o`quv dasturlari yaratib, barcha ta`lim-tarbiya ishlarini milliy g`oya asosida qayta ko`rib chiqib, mazmunan yangilash va boyitish ustida ish olib bormoqdalar. Shuningdek, barcha ta`lim muassasalarida mustaqillik, madaniyat va ma`naviyat, milliy qadriyatlar, urf-odat va an`analar, ularning ma`naviy qayta tiklashdagi o`rni, O`rta Osiyo xalqlarining ma`naviy merosi kabi bir qator maxsus kurslari joriy etildi va ular zarur bo`lgan adabiyotlarni yaratishda katta ishlar qilindi.

Umumiy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumi ham qayta o`rganildi, ularni milliy g`oyalar asosida mazmunan yangilashga harakat qilindi.

Yosh avlodning ma`naviy kamol topishida, milliy qadriyatlar va an`analarimiz asosida tarbiyalashda Sharq falsafasi va islom ta`limotidan unumli foydalanmoqda. Islom falsafasining eng afzallik tomonlaridan biri shundaki, uning g`oyalari insonning ichki dunyosi, ma`naviyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuning uchun ham u kishilarning qalbida chuqur ildiz otib ketgan.

Mustaqillik xalqimizning ma'naviy yuksalishiga katta yo'l ochib berdi. O'z navbatida ma'naviyat mustaqil davlatimiz poydevorini mustahkamlashga faol ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Yosh avlodning ma'naviy kamol topishida, milliy qadriyatlar va an'alarimiz asosida tarbiyalashda Sharq falsafasi va islom ta'limotidan unumli foydalanmoqda. Islom falsafasining eng afzallik tomonlaridan biri shundaki, uning g'oyalari insonning ichki dunyosi, ma'naviyatini shakllantirishga qaratilgan. Shuning uchun ham u kishilarning qalbida chuqur ildiz otib ketgan.

Mustaqillik yillarida o'tmishda o'tgan buyuk siymolar, allomalar, adiblar faoliyati va ilmiy merosini o'rganish, targ'ib qilish, madaniyatimiz tarixini, ma'naviy boyligimizni chuqur bilish istiqlolni mustahkamlashning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Shunga ko'ra, mustaqilligimiz bergan tarixiy imkoniyatlardan unumli foydalanib, «Ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o'rganishimiz darkor»⁴⁰. Buni mamlakatimizda izchil kechayotgan yangilanish jarayoni, shu jumladan, yosh avlodning insoniyat daholari bo'lgan buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lish yo'lida tobora kuchayib borayotgan intilishlari ham taqozo etadi. Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma'naviyatiga ega bo'lgan insonlar zarur. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ta'kidlanganidek, «Hozirgi paytda mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta subekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda.»⁴¹ Shu ma'noda aholi siyosiy ongi va madaniyatni yuksaltirishda

⁴⁰Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: «O'zbekiston», 1995, 249-bet.

⁴¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010 yil 12 noyabr)-T.:«O'zbekiston», 2010, 16-bet.

murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, «zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim.»⁴²

Shunday qilib milliy g'oya va mafkuramizning shakllanishida ajdodlar merosinnig xususan Ma'muniylar sulolasi davri ya'ni uyg'onish davri mutafakkirlari merosining ahamiyati g'oyatda ahamiyatlidir.

⁴² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch., «Ma'naviyat», -T:, 2008, 41-bet.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. “ O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konfrensiyaning ochilish marosimida nutqi. <<Xalq so’zi>>, “Sharq”, T.,2014.-B.1.
2. Каримов И. Илму маърифат зиёси ҳеч қачон сўнмайди. Хоразм Маъмун Академиясининг 1000 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. Халқ сўзи. 2006 йил 3 ноябрь.
3. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni- xalq, millatni- millat qilishga xizmat qilsin. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.7. T.: O’zbekiston, 1999. –B. 99.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.Muloqot.-1999.-№ 1.-B.13.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat engilmas kuch.-T.: Ma`naviyat, 2008.-B.48.
6. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақиллика эришиш оstonасида.- Т.: Ўзбекистон, 2011.
7. Каримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. .- Т.: Ўзбекистон, 2015.
8. O’rta asrlar sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati. O’quv qo’llanma. T.,2014. – B.3-4.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: 1967. –B. 31.
- 10.Abdurahmonov M., Rahmonov N. Madaniyatshunoslik.-Toshkent, 2008.- B.134.
11. Abdurahmonov M., Rahmonov N. Madaniyatshunoslik.-Toshkent, 2008.- B.147.
12. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. I жилд. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. -Т.: Фан, 1963.
13. Abu Nasr Farobiy. Fozil shahar aholisining fazilatları.-Toshkent, 1995.

14. A.Irisov, A. Nosirov, I.Nizomiddinov. O`rta Osiyolik qirq olim. “O`zSSR FA Nashriyoti”, T., 1961
15. Bahodirov R. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan.- Toshkent: O`zbekiston, 1995.-144b.
- 16.Бабашев Ф. Хоразм Маъмун академияси - маърифат ўчоғи. -Т.: Иқтисод-молия, 2005.
17. Hayrullaev M. O`rta Osiyoda ilk Uyg`onish davri madaniyati.-T., 1994 y., 71-72 betlar.
- 18.Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma.-T.: Sharq, 1999.
19. Imom Buxoriy. “Jom`e as-sahih”.-Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1998.- B.5.
20. Irisov A. Abu Rayhon Beruniy. – T., “Fan” 1960
21. Murtazaeva R. O`zbekiston tarixi.-Toshkent, 2000.B.134.
22. «Мажлиси уламо» (Хоразм Маъмун академияси)-ўрта аср Шаркининг илмий маркази. ТДШИ, Марказий Осиё халқлари тарихи кафедраси. Илмий-амалий конференция материаллари. -Т.: ТДШИ, 2006.
23. Матниёзов М., Сотлиқов А. Жахон тарихи ва маданиятида Хоразм. Хоразм -1999.
24. Хоразм Маъмун академияси (Хорезмская академия Маъмуна). Китоб-альбом. Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган. -Т.: Шарқ, 2005.
25. Хоразм Маъмун академияси. Илмий монографик тўплам. - Тошкент, 2005.
26. Хоразм Маъмун академияси ва унинг дунё илм-фани тараққиётидаги ўрни. Хоразм Маъмун академиясининг 1000 йиллигига бағишланган халқаро конференция материаллари. Тошкент-Хива:-2006.
27. Nizomulmulk. Siyosatnoma.-Toshkent.-Adolat, 1997.
28. O`zbekiston tarixi.-Ma`ruzalar matni.-Namangan, 2010.-B.54.
29. Pugachenkova G. Rempel P. ,История искусства Узбекистана.Т., 1965 g. 121 str.

30. Rizaev Sh. Ma`rifatparvarlikdan ma`rifatchilikgacha //Tafakkur.-1995.-№1.-B.74-79.
31. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov . Vatan tarixi.I tom.T., "Sharq".2010.-B.174.
32. Жуманиязов М. Маъмун академияси. Урганч-1994.
33. "Фан ва турмуш" журнали. №1-3. 2006. Қадим Хоразм цивилизацияси (махсус сон).
34. O'zbekiston Respublikasi FA Beruniy nomli sharqshunoslik instituti.Ma'naviyat yulduzlari."Xalq me'rosi".T.2001.-B.20
35. Qayumov Aziz. Ahmad al-Farg'oniy. T., "Fan",1990
36. Shihobiddin an-Hasaviy. Siyrat as-sulton Jaloliddin Mengburn.-T.: Fan, 1999.
37. Turdiev Sh. Zakiy Validiy yodnomasidan //Fan va Turmush.-1993.-№11-12.-B.24-26.;

INTERNET SAYTLARI:

WWW. press-servise.uz -press-slujbu Prezidenta Respubliki Uzbekistana;
WWW. Gov uz- Internet-portal kabinetu ministrov Respubliki Uzbekistana;
[WWW.ises](http://WWW.ises.uz) uz - veb-sayt Instituta strategicheskix i mejregional'nix issledovaniy pri Prezidenta Respubliki Uzbekisten;
WWW. Edu uz - veb-saytInstitutaizucheniya grajdaeskogo obshestva;
WWW. Ziyonet uz - Internet-skt' «Ziyonet»;
WWW. myp uz - Natsional'niy molodejnyy portal.

Абу Али ибн Сино
(980.08, Афшона қишлоғи — 1037.18.6,
Ҳамадон ш., Эрон)



Абу Райхон Беруний

(973.4.9. қадимги Кот (Кат) шаҳри –
1048.11.12. Ғазна (ҳозирги Афғонистонда))





